Subsidiyalangan nashrlar tizimi madaniy siyosatning muhim instrumentlaridan biri bo'lib, u bozor sharoitida tijoriy jihatdan katta foyda keltirmasligi mumkin bo'lgan, ammo ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati juda yuqori bo'lgan asarlarni chop etish imkonini yaratadi. Bu mexanizm orqali adabiyot faqat bozor talabiga bog'lanib qolmaydi, balki davlatning ma'naviy strategiyasi bilan uyg'un holda rivojlanadi.

Xususan, "Jahon adabiyoti durdonalari" va "O'zbek adabiyoti xazinasi" kabi kengqamrovli nashr turkumlarining davlat ko'magida chop etilishi kitobxonlarga sifatli va tanlangan adabiy merosni arzon narxda yetkazib berishga xizmat qiladi. Bu esa adabiy merosning keng ommaga yetib borishini ta'minlab, mutolaa madaniyatini ommaviylashtiradi.

Filolog-ekspert ushbu jarayonda markaziy intellektual bo'g'in sifatida ishtirok etadi. U qaysi asarlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim ekanini aniqlashda badiiy sifat, tarixiy ahamiyat, g'oyaviy mazmun va tarbiyaviy qiymat kabi mezonlarga tayanadi. Bu tanlov jarayoni adabiy merosni saralash va uni kelajak avlodga to'g'ri shaklda yetkazish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

Agar davlat ushbu tizimni qo'llab-quvvatlamasa, adabiy bozor to'liq erkin raqobat ta'siriga tushib, unda asosan yengil mazmunli, tijoriy maqsadga yo'naltirilgan asarlar ustunlik qilishi ehtimoli ortadi. Bu esa uzoq muddatda adabiy sifatning pasayishi va ma'naviy muhitning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, madaniy siyosat doirasida subsidiyalangan nashrlar tizimi sifatli adabiyotni iqtisodiy jihatdan himoya qilish va uni jamiyatga keng yetkazish vazifasini bajaradi. Bu esa adabiyotni faqat bozor mahsuloti emas, balki milliy ma'naviy boylik sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi.

"Kitobxonlik haftaliklari" hamda xalqaro kitob ko'rgazmalari zamonaviy adabiy-ijtimoiy muloqotning muhim platformasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tadbirlar faqat kitob namoyishi emas, balki yozuvchi, noshir va kitobxon o'rtasidagi bevosita intellektual aloqa maydonini shakllantiradi. Shu orqali adabiy jarayon "yashirin" emas, ochiq va interaktiv muhitda rivojlanadi.

Filolog-ekspert mazkur ko'rgazmalardagi tendensiyalarni tahlil qilish orqali kitob bozorining real ehtiyojlari va yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu tahlillar

yangi janrlar paydo bo'lishi, o'quvchilar qiziqishining o'zgarishi hamda nashriyot strategiyalarining shakllanishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Toshkent kitob ko'rgazmasi doirasida o'tkaziladigan mahorat darslari va treninglar yangi avlod noshirlari, muharrirlar va adabiy menejerlarni tayyorlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bunday ommaviy tadbirlar kitobni faqat intellektual mahsulot emas, balki ijtimoiy-madaniy "trend" darajasiga ko'taradi. Natijada kitob o'qish madaniyati moddiy emas, balki ijtimoiy nufuz va madaniy identifikatsiya belgisiga aylanadi. Kishilar o'zlarini kitobli muhit orqali madaniy jamiyatning faol va mas'ul a'zosi sifatida his qila boshlaydilar.

Jamoat tashkilotlari va nodavlat sektorning kitobxonlik jarayonidagi ishtiroki ham madaniy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Xususi nashriyotlar, adabiy klublar va tashabbuskor guruhlar davlat dasturlarini to'ldirib, madaniy muhitni yanada rang-barang qiladi. Masalan, turli korxonalarda tashkil etilgan korporativ kutubxonalar xodimlarning intellektual salohiyatini oshirish, ish muhitida bilimga asoslangan madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Filolog-ekspert bu jarayonda jamoatchilik tashabbuslarining davlatning umumiy madaniy yo'nalishi bilan uyg'unligini tahlil qiladi. Ushbu hamkorlik natijasida adabiy bozorda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, bu esa o'z navbatida kitob dizayni, tahrir sifati va mazmun standartlarining yaxshilanishiga olib keladi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila va maktab tizimi bilan uzviy bog'liqlik alohida ahamiyatga ega. "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" kabi ijtimoiy aksiyalar oilada kitobga bo'lgan munosabatni kuchaytirib, uy kutubxonalarini qayta tiklashga turtki beradi. Filolog va metodistlar bolalar adabiyotini yosh xususiyatlariga moslashtirish, uning mazmun va tarbiyaviy jihatdan samaradorligini oshirish hamda maktab kutubxonalariga yetkazish jarayonida faol ishtirok etadilar.

Kitob o'qiydigan bola nafaqat bilimli, balki tanqidiy fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va mustaqil qaror qabul qiladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu ma'noda, madaniy siyosatning eng muhim poydevori aynan yosh avlodning mutolaaga bo'lgan munosabati va kitob bilan o'sib-ulg'ayish madaniyatiga tayanadi.

Shuning uchun ham bu yo'nalish davlatning uzoq muddatli strategik investitsiyasi sifatida baholanadi, chunki u jamiyatning kelajak intellektual qiyofasini shakllantiradi.

Filolog-ekspertlar madaniy dasturlarning samaradorligini tizimli monitoring qilish orqali madaniy siyosatni doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Ular sotsiologik so'rovlar, statistik tahlillar va dala tadqiqotlari asosida qaysi hududda kitobxonlik darajasi past ekani-

ni, qaysi aholi qatlamlarida mutolaaga qiziqish kuchli yoki zaifligini, shuningdek, qaysi janrlarga talab yuqori ekanini aniqlaydi. Bu ma'lumotlar madaniy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi.

Masalan, qishloq hududlarida infratuzilma va axborot resurslarining cheklanganligi sababli ko'chma kutubxonalar tashkil etish ehtiyoji aynan shu tahlillar natijasida yuzaga keladi. Bunday tashabbuslar kitobni faqat shahar markazlariga xos madaniy resurs emas, balki barcha hududlar uchun teng imkoniyatli ma'naviy boylikka aylantiradi.

Filolog-ekspert xulosalari madaniy qarorlarning ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu xulosalar orqali davlat resurslari samarali taqsimlanadi, kitobxonlikni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi va madaniy siyosatning natijadorligi oshiriladi. Shu ma'noda, kitobxonlikni targ'ib qilish jamiyatning intellektual salomatligini ta'minlovchi uzluksiz davlat xizmati sifatida baholanadi.

Kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat va jamoat dasturlari jamiyatning umumiy ma'rifiy darajasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Sifatli adabiyot nashri, zamonaviy kutubxona infratuzilmasi va ommaviy adabiy tadbirlar o'zaro uyg'un holda yangi mutolaa muhitini shakllantiradi. Bu muhitda kitob faqat bilim manbayi emas, balki kundalik hayotning ajralmas ma'naviy komponentiga aylanadi.

Filolog-ekspert bu jarayonda adabiy matn va jamiyatning real ehtiyojlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy intellektual bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri yo'naltirilgan madaniy siyosat natijasida kitob har bir xonadonning ma'naviy markaziga aylanib, oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Bu esa milliy adabiyotning barqaror rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, madaniy siyosat milliy adabiy merosni saqlash va uni xalqaro miqyosda ommalashtirish vazifasini ham bajaradi. Mumtoz asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish, xalqaro kitob ko'rgazmalarida faol ishtirok etish, adabiy yubileylarni UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar darajasida nishonlash bu yo'nalishning muhim tarkibiy qismlaridir.

Filolog-ekspert milliy adabiyotning jahon adabiy jarayoniga integratsiyalashuvida vositachi va tahlilchi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, adabiy merosni raqamlashtirish, elektron kutubxonalar yaratish va raqamli arxivlarni rivojlantirish ham zamonaviy madaniy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu sa'y-harakatlar milliy tafakkur xazinasi nafaqat saqlash, balki uni kelajak avlodlarga to'liq, aniq va barqaror shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Adabiy merosni asrashning huquqiy va institutsional asoslari davlat siyosati darajasida kafolatlangan muhim tizim hisoblanadi. Bu jarayonda qo'lyozmalar institutlari, arxivlar va muzeylar markaziy o'rin tutib, ular qadimiy matnlarni restavratsiya qilish, konservatsiyalash va ularning asl nusxalarini uzoq muddat saqlash bilan shug'ullanadi. Bunday muassasalar nafaqat saqlovchi, balki ilmiy tadqiqot markazi vazifasini ham bajaradi.

Filolog-matnshunos ushbu jarayonda asosiy intellektual ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. U qadimiy bitiklar, qo'lyozmalar va tarixiy manbalarining lingvistik, semantik va madaniy qatlamlarini tahlil qilib, ularni zamonaviy til me'yorlariga moslashtirish va izohli shaklda taqdim etish bilan shug'ullanadi. Bu orqali qadimiy matnlar zamonaviy o'quvchi uchun tushunarli va qabul qilinadigan shaklga keltiriladi.

Masalan, "O'zbek adabiyoti durdonalari" kabi ko'p jildli ilmiy-adabiy nashrlar milliy merosni tizimlashtirish va uni yaxlit konseptual tizim sifatida taqdim etish imkonini berdi. Bu turkum orqali turli davrlarda yaratilgan asarlar o'zaro bog'liq adabiy-tarixiy kontekstda o'rganiladi va ularning umumiy ma'naviy qimmatini ochib beriladi. Davlat bu merosni faqat tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki jamiyatning bugungi ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatayotgan tirik madaniy kuch sifatida baholaydi.

Milliy adabiyotni jahon miqyosida targ'ib etishda tarjima maktabi markaziy va strategik ahamiyatga ega. Sifatli badiiy tarjima asarning boshqa madaniy muhitda qabul qilinishi, uning estetik va g'oyaviy qimmatining tan olinishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli madaniy siyosat doirasida xorijiy tarjimonlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va "O'zbek adabiyotining xorijiy do'stlari" kabi anjumanlar tashkil etish muhim yo'nalish sifatida rivojlantirilmoqda.

Masalan, Alisher Navoiy g'azallarining ingliz, fransuz yoki nemis tillariga mahorat bilan tarjima qilinishi G'arb kitobxoni uchun Sharq Renessansi estetikasi va falsafiy dunyoqarashini kashf etish imkonini yaratadi. Bu jarayon orqali milliy adabiyot jahon madaniy makonida o'zining munosib o'rnini egallaydi.

Filolog-ekspert tarjima jarayonida asarning badiiy saviyasi, semantik aniqligi va asl nusxa ruhiga sadoqat darajasini ilmiy asosda tahlil qiladi. U tarjimaning faqat lingvistik emas, balki madaniy-estetik adekvatligini ham baholaydi. Shu ma'noda, tarjima madaniyatlararo muloqotning eng ishonchli va samarali ko'priklaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ulug'bek SATTOROV,
TAFU professori,
filologiya fanlari doktori



Amaliy adabiyotshunoslik ta'limi zamonaviy gumanitar fanlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning bosh maqsadi nazariy adabiyotshunoslik fanining fundamental yutuqlarini ijtimoiy amaliyot, madaniy industriya va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilishdan iborat. An'anaviy filologik ta'lim, asosan, matnni statik obyekt sifatida o'rganish, tarixiy-biografik va genetik ildizlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan edi. Amaliy model matnning jamiyatdagi faol hayoti, iste'molchiga ta'siri va ijodiy salohiyatini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bu yondashuvda adabiyot o'tmish merosi bo'lish bilan birga, doimiy ravishda qayta ishlanadigan, yangi formatlarga ko'chiriladigan va zamon ehtiyojlariga moslashtiriladigan dinamik resurs sifatida qaraladi. Bunday ta'lim modelining zarurati mehnat bozori talablarining o'zgarishi bilan ham bog'liq. Bugungi kunda jamiyatga matn tahlilchisi bilan birga adabiy jarayonni boshqara oladigan, madaniy loyihalarni loyihalashtiradigan va matnning kommunikativ imkoniyatlarini amalda qo'llay oladigan mutaxassislar kerak.

FILOLOGIK TA'LIM NAZARIY QOBIQDAN CHIQQMOQDA



Ta'lim tizimidagi bu burilish adabiyotni kitob javonlaridagi arxivdan jonli muloqot quroliga aylantiradi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos dars jarayonida mumtoz asarlarning bugungi kun uchun dolzarbligini isbotlashni o'rganadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi gumanistik g'oyalarni zamonaviy ijtimoiy rolik yoki motivatsion postlar ko'rinishida taqdim etish ko'nikmasini egallaydi. Bu jarayon matnni tushunish darajasini oshiradi. Filologiya fani yopiq akademik doiradan chiqib, ochiq madaniy maydonga qadam qo'yadi. Bu yosh mutaxassisning ijodiy fikrlash doirasini kengaytiradi, turli sohada o'rnini topishiga yordam beradi.

Amaliy adabiyotshunoslik ta'limi raqamli texnologiyalar bilan ishlashni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos badiiy matnni raqamli formatga aylantirish, kompyuter tahlilidan o'tkazish va elektron kutubxonalar yaratishni o'rganadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi so'zlar chastotasini tahlil qilish orqali yozuvchi uslubining statistik manzarasini yaratish mumkin. Bu kabi raqamli vositalar matnni chuqurroq anglashga imkon beradi. Raqamli gumanitar fanlar yo'nalishi amaliy adabiyotshunoslikning ajralmas qismiga aylanib borayotgani ham shundan dalolat beradi. Bu texnologiyalar adabiyotni saqlash va targ'ib qilishning eng samarali yo'llaridan hisoblanadi.

Madaniy industriya sohasida adabiy bilimlar marketing va brending yo'nalishlari uchun asos bo'ladi. Mumtoz qahramonlar obrazidan reklama kampaniyalarida foydalanish yoki tarixiy asarlar asosida sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish – amaliy adabiyotshunoslikning samarali natijasidir. Masalan, G'afur G'ulom asarlaridagi mahalla muhitini turizm brendi sifatida namoyish etish mumkin. Bunday loyiha adabiyotni

iqtisodiy foyda keltiradigan va ijtimoiy jozibadorlikni oshiradigan sohaga aylantiradi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos bunday ishlarni amalga oshirish orqali tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyatlarini ham namoyon qiladi. Bu filologiya ta'limini yanada hayotiy va qiziqarli qiladi.

Ijodiy yozish mahorati – amaliy ta'limning muhim bo'lagi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos turli janrda sifatli matn yarata olishi kerak. Kopirayting, senariyavislik va blog yuritish kabi zamonaviy yo'nalishlar adabiy bilimlarga tayanadi. Yaxshi filolog ijtimoiy tarmoq uchun ta'sirli matn yozishi, asar asosida qisqa metrajli film uchun senariy tayyorlashi lozim. Masalan, Cho'lpon she'riyati asosida zamonaviy musiqiy klip senariysini yozish bo'lajak amaliy adabiyotshunosning ijodiy salohiyatini namoyon qiladi. Bu ko'nikma yoshlarga zamonaviy media maydonida o'z so'zini aytishga imkon beradi. Shuning uchun ham amaliy ta'limda ijodiy mashqlarga katta urg'u beriladi.

Amaliy adabiyotshunoslik ta'limi kitobxon bilan ishlash, ya'ni retseptiv estetik qonuniyatlarni ham o'rgatadi. Kitobxon didini shakllantirish, mutolaaga qiziqtirish usullari pedagogik va psixologik amaliyotning bir qismidir. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos muayyan asarni o'qish orqali tushkunlikdan chiqish yoki o'zini anglash yo'llarini tushuntirib berishi mumkin. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" asaridagi matonatli obrazlar orqali yoshlarda irodani mustahkamlash bo'yicha trening tashkil etish amaliy natijali bo'ladi. Bunday yondashuv adabiyotni hayot murabbiysi darajasiga ko'taradi.

Amaliy adabiyotshunoslik ta'limi – davr talabi. U fanni nazariy qobiqdan chiqarib, real dunyo bilan bog'laydi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos bu modelda bilimni amalda qo'llab, jami-

yatda nufuzini o'rnatadi. Adabiyotning hayotiyligi amaliy qo'llanishida, avlodlarga tushunarli tilda yetib borishida namoyon bo'ladi. Filolog mutaxassis endi faqat kutubxonachi yoki o'qituvchi bo'lib qolmay, zamonaviy madaniyatning faol ijodkoriga ham aylanadi. Bu yo'nalishdagi islohotlar – filologiya fani istiqbolini belgilab beruvchi eng muhim omil. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Amaliy adabiyotshunoslikning o'quv modeli ko'p qirrali, bir nechta bilim sohasining kesishuv nuqtasida shakllanadi. O'zagini mumtoz adabiyot nazariyasi tashkil etadi. Bu poydevor atrofiga amaliy ko'nikmani shakllantiruvchi fanlararo modullar jamlanadi. Bunday tuzilma bo'lajak amaliy adabiyotshunosga matnning ichki qonuniyatlarini anglash bilan birga, tashqi dunyoda qo'llash

imkonini beradi. Ushbu modelda adabiyotshunoslik psixologiya bilan biblioterapiya yo'nalishida, sotsiologiya va iqtisodiyot bilan kitob bozori hamda nashriyot menejmenti yo'nalishida tutashadi. Axborot texnologiyalari bilan aloqa esa raqamli gumanitar fanlar yo'nalishini yuzaga keltirib, filologiya ta'limini mutlaqo yangi bosqichga ko'taradi.

O'quv dasturining birinchi bloki fundamental nazariyaga tayanadi, biroq bu bilimlar darhol instrumental ko'nikma bilan mustahkamlanadi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos matnni tahlil qilish jarayonida turli auditoriya uchun adaptatsiya qilish usullarini o'rganadi. Media-marketing qonuniyatlarini o'zlashtirish adabiy mahsulotni ommaga yetkazishning iqtisodiy va ijtimoiy yo'llarini ochib beradi. Adabiy ekspertiza o'tkazish metodikasi bo'lajak amaliy adabiyotshunosda asarning badiiy qiymatini professional darajada baholash qobiliyatini tarbiyalaydi. Fanlararo aloqadorlik bo'lajak amaliy adabiyotshunosda tizimli fikrlashni rivojlantirib, adabiyotni keng madaniy kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida ko'rishga yordam beradi.

Psixologiya bilan bog'liqlik bo'lajak amaliy adabiyotshunosga kitobxon ruhiyatini chuqur o'rganish imkonini taqdim etadi. Biblioterapiya moduli doirasida badiiy asar kishi ruhiy muammolarini hal qiluvchi vosita sifatida o'qitiladi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari orqali kishilarda yo'qotish dardi va mehr-oqibat tuyg'ularini muvozanatlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Bu yo'nalishda bo'lajak amaliy adabiyotshunos adabiyotning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganadi. Badiiy qahramonlar kechinmalari asosida individual tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmasini egalaydi. Shunday qilib, adabiyotshunoslik

nazariyadan ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasiga o'tadi.

Sotsiologiya va iqtisodiyot bilan hamkorlik nashriyot ishi va kitob marketingini shakllantiradi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos kitob bozoridagi ehtiyojni o'rganadi va asarni qanday qilib muvaffaqiyatli brendga aylantirish sirlarini o'zlashtiradi. Masalan, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini xorijiy sayyoh uchun qiziqarli ko'rinishda reklama qilish loyihasini ishlab chiqish amaliy vazifa bo'ladi. Bu jarayonda narx belgilash, maqsadli auditoriyani aniqlash va tarqatish kanallari bilan ishlash o'rgatiladi. Adabiy menejment fani doirasida bo'lajak amaliy adabiyotshunos muallif va nashriyot orasidagi huquqiy munosabatlarni tushunib yetadi. Va ular adabiyotni faqat badiiyat emas, ijtimoiy faoliyat deb qaraydi.

Axborot texnologiyalari bloki raqamli gumanitar fanlar asosidir. Bu modulda matnlarni korpus tahlil qilish, raqamli xaritalarni yaratish va elektron nashrlar tayyorlash metodikasi beriladi. Masalan, Erkin Vohidov she'riyatining leksik tarkibini maxsus dasturlar yordamida tahlil qilish orqali shoir lug'at boyligini aniq sonlarda ko'rsatish mumkin. Bo'lajak amaliy adabiyotshunos matnni kodlash(encoding) va ma'lumotlar bazasini boshqarishni o'rganadi. Bu bilimlar ularga zamonaviy axborot xizmatlari va AT kompaniyalarda adabiy kontent yaratuvchisi bo'lib ishlash imkonini beradi. Filologiya ta'limi raqamli asbob-uskuna bilan boyitiladi.

Amaliy adabiyotshunoslik ta'limi natijasida bitiruvchining ijtimoiy moslashuvchanligi oshadi. O'zgaruvchan sharoitda tez qaror qabul qilish va yangi sohada bilimini qo'llashga tayyor bo'ladi. Filologiya endi tor yo'nalish emas, keng imkoniyat maydoniga aylanadi. Bitiruvchi yangi ish o'rnini va madaniy startap yaratish salohiyatiga ega bo'ladi. Bu gumanitar ta'limning iqtisodiy barqarorligi va istiqbolini ta'minlaydi.

Baholash tizimi va kutilayotgan natija amaliy adabiyotshunoslikning hayotiyligini kafolatlaydi. Natija – jamiyatning madaniy ehtiyojini qondira oladigan yuksak malakali mutaxassis. Ta'limning bu modeli filologiya fanini yangi ijtimoiy maqomga ko'taradi va ke-lajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Har bir bitiruvchi faoliyati bilan adabiyotning naqadar qudratli va amaliy kuch ekanini isbotlab boradi. Bu milliy madaniyat va adabiyotning global dunyoda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

G'ofir HAMROYEV,
TAFU tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori

Mumtoz adabiy manbalar va XXI asr kitobxoni orasida ko'pincha duch kelinayotgan tushunmovchilik, ya'ni til hamda dunyoqarashdagi tafovut – zamonaviy adabiyotshunoslik oldida yechimini kutayotgan dolzarb vaziyatga aylanib ulgurdi. Bizga ma'lum hamda hali yana qanchalab aniqlanmagan va yoxud respublikamiz, shuningdek, dunyoning turli chekkalaridagi qo'lyozma asarlar fondida o'rganilishni kutib turgan merosimizning katta ulushi murakkab lug'aviy qatamlar va tarixiy ramzlar ostida qolib ketayotgani ularni oddiy "muzey ashyosi"ga aylantirib qo'ymoqda. Boz ustiga, o'tgan bir asr davomida oddiygina alifbo bilan bog'liq "islohot"lar ham klassik matnlar bilan aloqamizni yanada uzoqroqqa itqitib yuborgani rost.

Asosiy maqsadimiz – bo'lajak amaliy adabiyotshunosga qadimiy matnlarni bugungi kun talablaridan kelib chiqib sharhlash, yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish (qayta kontekstualizatsiya) ko'nikmalarini hosil qilish. Buning uchun tubandagi vazifalarni bajarishni ko'zda tutganmiz:

- izohli talqinning ilmiy metodikasini sharhlash;
- mumtoz matnlarni modernizatsiya qilish va moslashtirish turlarini o'rganish;
- adabiy merosimizni raqamli platforma hamda multimedia anjomlari ko'magida ommalashtirish yo'llarini ko'rsatish;
- adabiy merosni qayta kontekstlashtirish qilish matnning zamonaviy jamiyat ma'naviy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.

Bu jarayon mutaxassisdan ham tanlab olingan matn yaratilgan davrda keng istifoda etilgan tillarni bilishni, ham bugunning ijtimoiy ehtiyojlarini his etishni talab qiladi. Va shunda mumtoz asarlar yangi avlod uchun tushunarli, jozibador va hayotiy "ozuqa"ga aylanadi. Darhaqiqat, bu milliy o'zligimizni, merosga chinakam egalik qilishni anglash jarayonini uzluksiz davom ettirishning eng samarali yo'lidir. Zero, bu bundan ming yillar oldin turkiy xalqlarning cho'ng donishmandi Yusuf Xos Hojib kuyinib va umidlanib targ'ib etgan bilim ila qudratli davlatga aylanishga katta yo'l ochadi:

Mumtoz matnlarni o'rganishda lisoniy to'siqlardan oshib o'tish – eng birinchi qadam. Eski o'zbek tili lug'at boyligi va grammatik qurilishi eng asosiysi, ilmi sanoye' ta'sirida yuvudga kelgan teran ramzlarga qurilgan ma'no bilan zamonaviy tildan sezilarli farq qiladi. Shuning uchun oddiy kitobxonga "abdol", "murshid", "sham'", "ishq", "may" yoki "pir" kabi so'zlarning tasavvufiy ma'nolarini anglash qiyinchilik tug'diradi. Tegishli mutaxassis bu tushunchalarni zamonaviy dunyoqarashga moslab talqin qilishi lozim. Bu jarayon matnning g'oyaviy mag'zini chaqib berishdir. Izohli sharhlar, talqin, tahlil va qiyoslar orqali o'tmish va bugun uchun adabiy "ko'prik" quriladi.

Shorih va yoki tahlilchi sharhlar ekan, tarixiy voqealarni tushuntirish ham muhim o'rin tutadi. Mumtoz asarlarda so'z yuritilayotgan olingan jug'rofiy makon, tarixiy shaxs yoki o'sha davrning urf-odatlarini matn ma'nosini tushunish uchun kalit vazifasini o'taydi. Masalan, Boburning "Boburnoma" asaridagi harbiy atama yoki diplomatik qoidalarni sharhlash o'quvchini dastlab qiziqitirib qoladi, natijada ana shu qiziqish tuyg'usi o'z-o'zidan bolani voqealar mohiyatini chuqurroq anglashga undayveradi. Zotan, inson ongida va ong ostida o'tmishga, eng bo'limganda, kelajakni bilishga intilish hamisha ustun bo'lib turadi. G'aybga aylangan bolaladni eslash, sog'inish hech bir keksani chetlab o'tmagani haqiqat bo'lganidek, bilish, bila olish, o'tmish hayoti haqidagi boy tasavvur dunyosi aql va ruh olamida uyg'unlik hosil qiladi. Talqin muallifi tarixiy dalillarni badiiy to'qima bilan qiyoslagan holda asarning haqiqat darajasiga baho beradi. Ayni vaqtda mazkur usul matnning tarixiy hujjat sifatidagi qimmatini

MUMTOZ MEROSNING ZAMONAVIY FORMATI HAQIDA

o'shiradi. Amaliy adabiyotshunoslikda bunday sharhlar kitobxonning qiziqishini saqlabgina qolmay, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmishdoshlarining tafakkur va hissiy olamini yaqindan bilishga imkon beradi.

Ha, ramzlar va majozni ochib berish izohli talqinning eng ijodiy qismidir. Mumtoz she'riy va epik asardagi har bir obraz, timsol, istiloh ortida chuqur falsafiy yoki axloqiy tushuncha yashiringan bo'ladi. Bular esa estetik kategoriyalar va badiiy so'z san'ati bilan bir butunlik hosil qilgan bo'ladi. Masalan, "sham" va parvona", "bulbul va gul" munosabati orqali oshiq va ma'shuq, inson va ilohiy jamol, ruh va go'zallik orasidagi bog'liqlik ifodalanaadi. Shorih(ekspert)dan bu majoz va simvollik qiyofalarni o'quvchi tushunadigan soddta tillar ifoda qilish talab etiladi. Ayni vaqtda matnning badiiy jozibasini yo'qolmasligi uchun tushuntirish, tahlil va tabdillar lirik bo'yoq bilan beriladi. Shubhasiz, ramzlar dunyosiga kirish o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Aslida, amaliy jihatdan izohli talqin nashriyot ishlari va ta'lim jarayonlarida ko'lamli olib borishi maqsadga muvofiqdir. Maktab darsliklari yoki ommabop nashrda mumtoz asar "nasriy bayon", tabdil yoki qisqacha sharh bilan birga beriladi. Bu yosh avlodning mumtoz adabiyotga bo'lgan mehrini uyg'otadi. Masalan, hazrat mir Alisher Navoiy g'azallarini o'rganishda har bir baytning zamonaviy tildagi ma'nosi va undagi asosiy g'oya alohida ko'rsatiladi. Professional tahlilchi lirik yoki epik matnni kitobxon darajasiga muvofiqlashtiradi. Bu adabiy merosning ijtimoiy iste'molda qolishini ta'minlaydi. Soddalashtirish shunday tizimli amalga oshirilishi lozimki, birinchidan, o'ta jo'nashib ketmasin, ikkinchidan va eng asosiysi ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikr ifodasi yangilish ketmasin. Shunda Zahiriddin Muhammad Boburdek ulkan tafakkur egasining bitiklari zamonaviy kitobxonning fikrlash darajasiga ko'ra quyiga immasdan, aksincha, aslyatga qarab ijodiy ongda o'sish yuz beradi. Chinakam amaliy talqin mehnati hatto so'zdagi qatlamlilik xususiyati hisobga olinsa, o'qirmanni ijodkorning tafakkuridan ham oldinroqqa yuksaltira oladi.

Ta'kidlash joizki, amaliy adabiyotshunoslikning so'z yuritilayotgan ushbu jarayonida uch tomonlama munosabat va fikrlash uyg'unligi talab qilinadi. Matn ijodkori – sharhlovchi – kitobxon ketma-ketlikda emas, aylana shaklida muvofiqlashishi, bir-birini to'ldirishi lozim.

Izohli talqin matnning badiiy ta'sirini tiklashda ham bosh rol o'ynaydi. Vaqtlar o'tishi bilan ba'zi badiiy usul yoki qo'fiya tizimi o'z jozibasini yo'qotishi mumkin. Bunda vaziyat tilning eskirishi bilan ham bog'liqligi dalillanadi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning o'z memuarida hazrat Navoiy borasidagi ta'rifi ko'zdan kechiraylik: *"Ahlil fazl va ahli xunarga Alisherbekkha murabbiy va muqavviy ma'lum emaski, xargiz paydo bo'lmish bo'lgay..."*. Alohida belgilab qo'yilgan ibora o'zbek tilining amaldagi yozma va og'zaki so'zlashuvda ham hozir qo'llanilmaydi. Buning negaligi o'quvchiga qiziq va amaliy adabiyotshunoslik buning izohida yordamga keladi.



Matn tahlilchisi asarning nega o'z davrida mashhur bo'lgani va bugungi ahamiyatini tushuntirib beradi. Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidagi insonparvarlik g'oyalari, kashfiyotga undovchi xayoliy tasvirlari, *"temir paykar"*, *"zinali taxt"* singari tushunchalari hozirgi globalashuv davrida ham dolzarb ekanini asoslanadi. Bu jarayon o'quvchida o'z milliy adabiyotidan g'ururlanish hissinini uyg'otadi. Bu esa matnning hayotiyiligi har bir davrda yangicha talqin qilinishi bilan bog'liqligini ham tasdiqlaydi.

Filologik sharh va izohli talqin orasidagi muvozanatni saqlash shorih mahoratini belgilaydi. Filologik sharh ko'proq quruq dalil, etimologiya va grammatikaga tayansa, izohli talqin matnning ruhiga kirib boradi. Ekspert matnning har bir so'zini tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, umumiy kafiyyatini yetkazishi lozim. Masalan, Lutfiy g'azallaridagi jozibani his qilish uchun faqat so'z ma'nosini bilish yetarli emas. Talqin muallifi o'quvchini shoirming ichki ma'naviy dunyosiga olib kiradi. Shunda matn his-tuyg'ular manbayaiga aylanadi. Shoirming ko'ngil olamidagi go'zalliklar siri ochila borgan sari estetik zavq moyil musaffo bola qalbi ruhiiy quvvatlanib, aqlan zo'riqmaydi.

Izohli sharh jarayonida kross-madaniy yondashuvdan foydalanish ham samara beradi. Mumtoz asardagi g'oyani jahon adabiyoti namunalarini bilan qiyoslash matn ko'lamini kengaytiradi. Masalan, Navoiyning ishq, olam, ilohiy qadar falsafasini Dante yoki Shekspir asarlari bilan qiyosiy sharhlash mumkin. Bu usul o'quvchiga milliy merosning dunyo tamaddunidagi o'rmini ko'rsatib beradi. Ekspert turli madaniyat orasidagi umumiylikni topish orqali matnni universal darajaga ko'taradi. Bunday keng qamrovli talqin bezir ketmaydi albatta, u kitobxonning dunyoqarashini o'stiradi.

Darhaqiqat, tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, adabiy merosning izohli talqinini ruhiy-ma'naviy uzviylikni mustahkamlovchi keng maydonga qiyoslash mumkin. O'tmish ijodkorlarining fikrlari, orzu-armonlari, intilishlari bugungi kun tili bilan gapirgandagina jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Ekspert bu jarayonda mas'uliyatli mediator vazifasini bajaradi. Har bir yangi tahlil matnning umrini uzaytiradi va yangi ma'nolar bilan boyitadi. Kelajak avlodlar uchun mumtoz asarlarni tushunarli qilish milliy o'zlikni saqlash garovidir. Shunday ekan, bir so'z bilan aytganki, izohli talqin – o'tmish xazinasini bugunning ma'naviy ehtiyojlarini uchun ochib beruvchi oltin kalitdir.

Qayta kontekstualizatsiya tarixiy asarni yaratilish davridan olib o'tib, bugunning ijtimoiy va madaniy muammolari doirasida tahlil qilishdir. Masalan, "Qutadg'u bilig" asaridagi davlat boshqaruvi tamoyillarini zamonaviy menejment yoki axloq qoidalari bilan qiyoslash – bu jarayonning yorqin namunasi. Matn yangi kontekstga tushganda, xilma-xil qirralarini namoyon qilib, biz-u siz bilan hamnafas – jamiyatni harakatlantiruvchi richaglarining bir uzviga aylanadi. Bu usul adabiy merosning yetib bo'lmas sayyora, "sirli orol" va yoxud oddiy "muzey ashyosi" bo'lib qolmasligi, jonli ma'naviy manba bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi.

Matnning yangi davrda o'qilishi semantik maydonini kengaytiradi. Har bir davr qadriyatlar tizimi va muammolari asosida mumtoz asarni qayta ko'rib chiqadi. Ekspertning vazifasi o'tmish asaridagi g'oyalar bugungi o'quvchi hayotiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatib berishdir. Masalan, Navoiy asarlaridagi ekologik qarashlar yoki tabiatni asrash motivlari bugungi iqlim o'zgarishi sharoitida yangicha ma'no kasb etadi. Shunday qilib, matn o'zining tarixiy chegaralaridan chiqib, zamonalararo muloqotga kirishadi.

Qayta kontekstualizatsiya jarayoni badiiy asarning ochiq tizim ekanligidan kelib chiqadi. Bu tushuncha matnning turli talqinga moslashuvchanligini anglatadi. Ekspert asardagi fundamental insoniy muammolarni – muhabbat, adolat, yaxshilik va burch kabi tushunchalarni bugungi hayotiy misollar bilan bog'laydi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi ijtimoiy fojearni zamonaviy oilaviy munosabatlarni kontekstida tahlil qilish matnning ta'sirchanligini o'stiradi. O'quvchi asar qahramonlari ichida o'zi yoki yaqinlarini ko'ra boshlaydi. Bu asarning estetik va tarbiyaviy quvvatini yangilaydi.

Zamonaviy amaliy adabiyotshunoslikda qayta kontekstualizatsiya madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham qo'llanadi. Milliy mumtoz asar xorijiy tilga tarjima qilingan yoki boshqa madaniy muhitda taqdim etilganda yangi kitobxon uchun tushunarli kontekstga solinadi. Masalan, "Xamsa" dostonlari Yevropa kitobxoniga taqdim etilayotganda ulardagi insoniylik g'oyalari G'arb falsafiy an'analari bilan qiyoslanadi. Bu usul milliy merosning universal mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Matn yangi madaniy kontekstda noyobligini saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlar bilan birlashadi.

Siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ham matnning qayta kontekstualizatsiya qilinishiga sabab bo'ladi. Bir davrda taqiqlangan yoki ahamiyatsiz deb topilgan asarlar boshqa bir davrda ozodlik va erk ramziga aylanishi mumkin. O'zbek adabiyoti tarixida jadidlar merosining istiqlol yillarida qayta o'rganilishi – bunga yorqin misol. Cho'ipon yoki Fitrat asarlari yangi mustaqil davlat qurish kontekstida o'rganilganda ulardagi milliy ozodlik g'oyalari birinchi o'ranga chiqdi. Ekspert ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib, matnning yashiringan qirralarini yuzaga chiqardi. Bu jarayon milliy mafkurani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Qayta kontekstualizatsiya usulidan pedagogikada ham keng foydalaniladi. Bo'lajak amaliy adabiyotshunosga mumtoz asarni o'rgatishda bugungi yoshlar turmushi bilan qiyoslash matnni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Masalan, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi kasb-hunar va axloq haqidagi o'gitlari zamonaviy kasbiy axloq me'yorlari sifatida tushuntiriladi. O'quvchi o'tmishdagi pand-nasihatni quruq so'z emas, hayotiy zarurat deb qabul qiladi. Buning yana bir amaliy ahamiyati shunda bo'ladi, bolalar ichki va tashqi muammolarining yechimini ko'ra boshlagach, qiziqish tabiiy ravishda kuchayib, ta'lim samaradorligi ham oshadi. Adabiy meros yoshlar uchun hayotiy yo'l-yoqlama vazifasini o'tay boshlaydi.

Ha, to'g'ri, san'atning boshqa turlari – teatr va kino ham qayta kontekstualizatsiyaning kuchli vositasi. Zero, mumtoz asar sahnalashtirilgan yoki ekranlashtirilganda rejissor uni vizual kontekstga ko'chiradi. Bugungi kun kiyimlaridagi qahramonlar tomonidan aytilgan mumtoz baytlar tomoshabinda o'zgacha hissiyot uyg'otadi. Masalan, hazrat Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidagi birgina g'azalning o'zida 10 dan ziyod



liboslarning nomlari uchraydi. Amaliy adabiyotshunos shu yerda yordamga keladi: o'quvchilarning liboslar haqidagi bilimlarini o'stiradi, hozirgi davr bilan qiyoslashga va o'z navbatida, uni amalda ham qo'llashlariga undaydi. XV asrdagi kiyinish madaniyati, liboslarning turlari, xususan, erkak va ayollar, shuningdek, muayyan tabaqa vakillarining ijtimoiy-madaniy hayotiga doir tasavvurlarni boyitadi.

*To'rt rangi muxtalifdin hullakim, jonon kiyar,
To'rt unsur kisvatidur go'yi yokim jon kiyar.*

*O'zbeki gulnori to'ndin kuydum, ammo o'tlurur,
Limuyi terlik aning ostidakim jonon kiyar.*

*Ikki yonimni shikof aylabturur bu rashkkim,
Ikki yonidin shikofin bog'lamay qapton kiyar.*

*Gul bila savsan katon yanglig' bo'lur mahbot aro,
Ko'nglaki gulgun elak chun savsani katon kiyar.*

*Oraz uzra sho'xlug'dimmu yopar sanjobini,
Yo'qsa sanjobi buluturkim, mahitobon kiyar.*

*Har chubul' an toridur sarrishai izzu sharaf,
Eski sholekim, fano ko'yida bir uryon kiyar.*

*Gar Navoiy jandasin shoh oldi, tong yo'q, chunki ishq
Poku beg'ashdur, gadoning kisvatini sulton kiyar.*

Ushbu g'azal o'ziga xos "libosnoma"dir. Unda **hulla**(bezakli, nafis matodan tikilgan kiyim), **o'zbeki gulnori to'n**(anor guliqizil to'n), **limuyi terlik**(sariq ichko'ynak), **katon**(kanopdan to'qilgan mato), **qapton**(ustdan kiyiladigan hashamatli to'n), **sinjob**(silovsin va olmaxon terisidan ishlangan to'n va yopinchiq), **kisvat**(kiyim, ust-bosh), **elak**(yengsiz yengil ustki kiyim), **shol**(jundan to'qilgan mato, shunday matodan tikilgan kiyim), **janda**(darvishlar to'ni) singari o'n turli libosning ta'rif-u tavsifi, ularning ranglari esa biri biriga o'xshamagan holda(**qizil, sariq, yashil, ko'k, oq, qora, zangori**) qalamga olingan.

Teatr rejissori esa tomoshabinni qiziqitirishda aynan mana shu faktlardan unumli foydalanishi lozimligi haqida amaliy adabiyotshunosning tavsiyalariga tayanadi. Dizaynerlar ekspert tomonidan berilgan ta'riflarga binoan yangi andozalar ustida ishlashga kirishadi. Rassom esa ekspertning g'azalda turli libos va ranglarda namoyon bo'layotgan lirik qahramonning tashqi va ichki olamini favqulodda yangi bo'yoqlarda chizishi shaksiz.

Tabiiyki, bu turdagi g'azallarning zamonaviy estrada yo'nalishida kuylanishi matnning ommalashtirishga xizmat qiladi. Bunda matn o'zining qog'ozdagi shakldan chiqib, tovush va tasvir olamiga ko'chadi. San'atlararo sintez asarning yashash doirasini kengaytiradi.

Endi masala shundaki, qayta kontekstualizatsiya jarayonida matnning asl mohiyatini saqlab qolish – o'ta nozik ishdir. Shorih asarni yangilashda muallif niyatiga putur yetkazmasligi kerak. Modernizatsiya jarayoni asarni asldan uzoqlashtirib yubormasligi lozim. Masalan, mumtoz qahramonni zamonaviylashtirishda asosiy xarakter xususiyati va falsafasi, mantiq saqlanishi shart. Agar matn juda erkin talqin qilinsa, tarixiy mohiyatini yo'qotib qo'yishi hech gap emas. Professional yondashuv o'tmishga hurmat va bugunga ehtiyoj orasidagi muvozanatni topishni talab etadi.

Qayta kontekstualizatsiya – adabiy merosni doimiy harakatda ushlab turuvchi mexanizm. U orqali o'tmish durdonalari bugungi kun kishisi bilan "suhbatlashadi". Ekspert bu muloqotda asosiy yo'naltiruvchi, matnning zamonalararo ko'prigini quradi. Adabiyot bugunning ma'naviy quroliga aylanadi. Qayta kontekstualizatsiya tufayli har bir avlod o'z Navoiysi, Qodiriyisini kashf etadi. Bu jarayon millatning ma'naviy barkamolligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga egadir.

Adabiy merosni saqlashning muhim bosqichi turli auditoriya uchun adaptatsiya qilinishidir. Bunga mumtoz asarning nasriy bayoni, bolalar uchun soddalashtirilgan varianti yoki vizual shakllari(kino, teatr, komiks) kiradi. Masalan, "Xamsa" dostonlarining nasriy va zamonaviy nazmiy talqinlari keng kitobxonlar ommasiga asar mazmunini yetkazishning eng samarali yo'lidir. Biroq adaptatsiya jarayonida asarning badiiy saviyasi tashib ketmasligi va muallif g'oyasi buzilmasligi qat'iy talab etiladi. Professional ekspert matnni qaysi darajacha soddalashtirish mumkinligini ilmiy asoslab berishi lozim. Modernizatsiya jarayoni asarni bugungi o'quvchiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Adaptatsiyaning eng keng tarqalgan turi – filologik nasriy bayon usuli. Bunda she'riy shakldagi murakkab matnlar zamonaviy til qoidalarga mos ravishda nasrga o'giriladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi og'ir arabiy va forsiy so'zlar hozirgi o'zbek tili lug'atiga almashtiriladi. Bu jarayonda matnning syujet chizig'i va qahramonlar tabiati o'zgarishsiz qoladi. Nasriy bayon o'quvchiga matnning mag'zini tezroq chaqishga imkon beradi. Ayniqsa, bo'lajak amaliy adabiyotshunos va maktab o'quvchisi uchun bu usul mumtoz meros bilan tanishishning dastlabki darvozasi hisoblanadi.

Modernizatsiya jarayoni matnning tilinigina emas, taqdim etilish shaklini ham yangilashni nazarda tutadi. Bugungi kitobxon vizual axborotni tezroq qabul qiladi, shuning uchun mumtoz asarni grafik roman yoki illustration nashr shaklida tayyorlash katta samara beradi. Masalan, "Alpomish" dostonining komiks shaklidagi varianti yosh bolada qahramonlik va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishda matnning o'zidan ko'ra kuchliroq ta'sir qilishi mumkin. Bunda asarning asosiy voqealari tasvir yordamida "so'zlaydi". Bunday yondashuv klassikani zerikarli darslik mavzusidan qiziqarli sarguzashtga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy merosni raqamli platformada taqdim etish – o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi eng kuchli vosita. Raqamli texnologiya tufayli mumtoz asar o'zining ikkinchi va yanada kengroq hayotini boshlaydi. Ekspert bu jarayonda ham olim ham texnologik menejer sifatida ishtirok etib, milliy qadriyatlarni yangi davr tiliga ko'chiradi. Adabiyot endi faqat kutubxona tokchalarida emas, har bir ekran va har bir gadjetda yashaydi. Bu milliy ma'naviyatimizning hayotiyiligi va uzviyligini ta'minlashning eng zamonaviy kafolatidir.

Sirdaryoxon O'TANOVA,
TAFU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi



Adabiy ekspertiza matnni nashrga tayyorlash, mukofotlarga tavsiya etish yoki ijtimoiy xavfsizligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ekspertiza jarayoni matnning janriy tabiati, mualliflik huquqi va badiiy saviyasini kompleks o'rganishni o'z ichiga oladi. Mutaxassis matnni tahlil qilar ekan, jamiyat uchun foydali ekani yoki aksincha, zararli g'oyalardan xoliligini tasdiqlaydi. Bu jarayon adabiy mahsulotning sifatini kafolatlovchi professional mezon vazifasini o'taydi. Ekspertning xulosasi – asarning kelajakdagi taqdirini hal qiluvchi rasmiy hujjat. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ekspertiza tadqiqotlar markazi sohani tartibga soluvchi asosiy vositaga aylandi.

BADIIY ASARNI BAHOLASH

Ekspertiza jarayonida bir necha yo'nalish uyg'unlashadi. Eng muhim turlaridan biri – badiiy-estetik ekspertiza. Bu tur doirasida matnning san'at asari sifatida qimmat va estetik darajasi aniqlanadi. Ekspert asarning yangiligi, obrazlar tizimi va g'oyaviy chuqurligini baholaydi. Masalan, yangi yozilgan dostonning an'anaviy sharq she'riyati qonuniyatlariga muvofiqi tekshiriladi. Bunda asarning adabiyotga yangi nafas olib kirgani e'tiborga olinadi. Estetik baho asarning badiiy bozorga kirishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Lingvistik ekspertiza matnning til me'yori va stilistikasini tekshirishga qaratiladi. Bunda grammatik qoida, so'z qo'llash mahorati, mantiqiylik va uslubiy izchillik asosiy o'rin egallaydi. Ekspert matndagi imlo xatolari, mantiqiy g'alizlik va janrga mos kelmaydigan iboralarni aniqlaydi. Masalan, rasmiy-idoraviy uslubda yozilgan matnda ko'cha jargonlarining asossiz qo'llanishi lingvistik xato deb baholanadi. Professional ekspertiza matnning o'qilishi oson va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Tilning tozaligi va jozibadorligi asarning muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy mezonidir.

Huquqiy-axloqiy ekspertiza matnning qonunchilikka muvofiqi va ma'naviy me'yorlarini nazorat qiladi. Bunda plagiat yoki o'zgalar mehnatidan asossiz foydalanish holatlari tekshiriladi. Shu bilan birga, matnda jamiyat barqarorligiga xavf soluvchi, milliy va diniy adovatni qo'zg'atuvchi g'oyalar borligi ham aniqlanadi. Ekspert asarning ijtimoiy xavfsizligini tasdiqlovchi xulosa berishi shart. Masalan, ekstremistik ruhda matnning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik – ekspertizaning muhim vazifasi. Bu jarayon adabiyotning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Taqriz va ekspert xulosasi orasida sezilarli tafovut mavjud. Taqriz ko'proq shaxsiy taassurotga tayansa, ekspertiza ilmiy va rasmiy hujjatdir. Ekspert o'z xulosasini aniq mezon va qonuniy normalar asosida tayyorlaydi. Masalan, darslikni ekspertizadan o'tkazishda o'quv dasturiga mosligi va metodik jihatlari qat'iy tekshiriladi. Oddiy kitobxon asarga ijobiy yoki salbiy deb baho bersa, ekspert har bir elementini tahlil qiladi. Ekspertiza xulosasi nashriyot uchun matnni boshqaruvchi beruvchi huquqiy asos hisoblanadi.

Adabiy ekspertiza turlaridan yana biri – nashriyot ekspertizasi. Bu bosqichda asarning bozor talabi va nashriyot yo'nalishiga mosligi ko'rib chiqiladi. Ekspert matnning salohiyatli o'quvchi auditoriyasi va sotuv darajasini taxmin qiladi. Bunda asarning sarlavhasidan tortib muqova dizaynigacha barcha amaliy jihat hisobga olinadi. Masalan, bolalar uchun mo'ljallangan kitobning tili soddaligi va vizual

bezaklari mosligi baholanadi. Nashriyot ekspertizasi adabiyotni iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lovchi bo'g'indir.

Ekspertiza jarayonida matnning o'ziga xosligi – eng yuqori baholanadigan belgi. Ekspert muallifning individual uslubi va yangi fikrlarini aniqlashi lozim. Ko'pincha, matn boshqa asarning takrori bo'lib qolishi mumkin. Bu uning qimmatini tushiradi. Masalan, zamonaviy o'zbek nasrida yangi qahramon tipining yaratilishi badiiy yangilik deb qabul qilinadi. Ekspert tahlillarida asarning adabiy jarayondagi o'rnini ko'rsatib beradi. O'ziga xos matn har doim ijobiy ekspert xulosasini oladi va kitobxonlar e'tiborini tortadi.

Hozirgi kunda adabiy ekspertiza raqamli texnologiya yordamida ham amalga oshirilmoqda. Maxsus dastur matndagi o'xshashliklarni soniyalar ichida aniqlaydi va o'ziga xoslik foizini hisoblab beradi. Bu usul, aynan, plagiat nazoratida qo'l keladi. Shuningdek, SI vositalari matnning emosional bo'yoqdorligi va o'qish qulayligini ham o'lchashi mumkin. Biroq shaxs-ekspertning adabiy didi va ma'noviy tahlili hali ham yetakchi bo'lib qolaveradi. Texnologik jarayon ekspertning ishini tezlashtirsa-da, yakuniy qarorni mutaxassis qabul qiladi.

Adabiy ekspertiza tadqiqotlar markazi adabiyotning jamiyatdagi nufuzini saqlab qolishga xizmat qiladi. U orqali sifatsiz va zararli kontentning oldi olinadi. Haqiqiy iste'dodlar qo'llab-quvvatlanadi. Ekspertning xolisligi va professional bilimi adabiy jarayonning sog'lom muhitini ta'minlaydi. Har bir tahlil qilingan asar jamiyatning ma'naviy ehtiyojlariga javob berishi lozim. Bu jarayon adabiyotshunoslikni maishiy turmushning eng muhim bo'g'iniga aylantiradi. Ekspertiza so'zning ijtimoiy va huquqiy mas'uliyatini tushunishdir.

Asarning badiiy yashovchanligini baholashda g'oyaviy yaxlitligi va badiiy yuksakligi birinchi navbatda e'tiborga olinadi. Ekspert asarda ko'tarilgan muammoning dolzarbligi, qahramonlar xarakterining ishonchiligi va sujet qurilishidagi mantiqiy izchillikni chuqur tahlil qiladi. Estetik mezonlar asarning o'quvchiga beradigan ma'naviy ozuqasi va badiiy shaklning mazmunga muvofiqiqligini to'liq qamrab oladi. Bunda adabiyotga yangi nafas, yangi obraz va kashfiyotlar olib kirganligi asosiy ko'rsatkich sanaladi. Va har bir badiiy element asarning umumiy g'oyasiga xizmat qilishi shart.

G'oyaviy yaxlitlik – asarning barcha qismini bitta maqsad atrofida birlashtiruvchi ichki quvvat. Ekspertiza jarayonida muallif ilgari surgan asosiy g'oyaning matn davomida rivojlanishi tekshiriladi. Agar asarning boshi va oxiri orasida mantiqiy uzilishlar va buzilishlar bo'lsa,

bu asarning g'oyaviy bo'shligidan dalolat beradi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi erk va mustaqillik g'oyasi har bir obraz va voqea orqali izchil ochib berilgan. Ekspert mana shunday tizimlilikni asarning sifati deb baholaydi. G'oyaviy tarqoqlik o'quvchining asardan oladigan taassurotini xiralashtiradi.

Badiiy asarning "yashash huquqi" estetik yangiligiga bevosita bog'liq. Ekspert muallif tomonidan qo'llangan tasviriy vosita va obrazlar tizimining original ekanini aniqlashi lozim. Adabiyotshunoslikda boshqa yozuvchilar uslubiga ko'r-ko'rona taqlid qilish asarning qimmatini tushiruv-

chi omil hisoblanadi. Masalan, Abdulla Qodiriy yaratgan qahramonlarning nusxasini yaratish yangilik hisoblanmaydi. Ekspert asarda yangi insoniy xarakter yoki kutilmagan badiiy yechim borligini qidiradi. Yangilik mavjud bo'lgan joydagina haqiqiy san'at asari haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Sujet va kompozitsiya qurilishidagi mantiq estetik baholashning muhim mezonidir. Voqealar rivoji bir-birini taqozo etishi va qahramon harakati xarakteriga mos kelishi shart. Ekspert asarda tasodifiy, asossiz voqealar ko'payib ketmagani tekshiradi. Masalan, dramatik asarlarda konfliktning rivojlanishi va yechimi tabiiy bo'lishi talab etiladi. Agar muallif sun'iy ravishda voqealarni tugatsa, bu asarning badiiy saviyasiga putur yetkazadi. Mantiqiy izchillik o'quvchining asarga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi.

Obrazlar tizimining hayotiyliги ekspertiza jarayonida alohida e'tiborga olinadi. Qahramonlar jonli va ziddiyatli kishilar sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ekspert qahramonlar nutqi ularning ijtimoiy kelib chiqishi va xarakteriga mosligini baholaydi. Masalan, bir dehqonning akademik tilda gapirishi yoki kichik bolaning falsafiy mulohazalari asardagi badiiy haqiqatga zid keladi. Obrazlarning mukammal ishlangani asarning badiiy pishiqligini ko'rsatadi. Har bir obraz o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lishi kerak.

Asarning tili va uslubi estetik muhofazasi vazifasini o'taydi. Ekspert muallif qo'llagan metafora, sifatlash va boshqa tasvir vositalarining o'rinli ekanini tahlil qiladi. Haddan tashqari balandparvozlik yoki me'yordan ortiq soddalik asarning badiiy ta'sirini kamaytirishi mumkin. Masalan, lirik asarlarda so'zning musiqiyliги va obrazlilik birinchi o'ringa chiqadi. Ekspert tildagi shirillik va muallifning so'z ustidagi zahmatini baholaydi. Boy va rangdor til asarning o'qishli bo'lishini ta'minlovchi asosiy estetik omildir.

Matnning janriy muvofiqiqligi ham ekspertiza mezonlari sirasiga kiradi. Agar asar roman deb e'lon qilingan bo'lsa, roman janriga xos ko'p qatlamlilik va keng qamrovlilik talablariga javob berishi kerak. Ekspert janr qonuniyatlarining qay darajada saqlangani yoki ijodiy o'zgartirilganini aniqlaydi. Masalan, tarixiy drama-da o'sha davr ruhining saqlanishi estetik talabdir. Janrlararo qorishqlik mavjud bo'lsa, yangilik sifatida asoslanishi lozim. Janr talabining buzilishi, ko'pincha, asar kompozitsiyasiga zarar yetkazadi. Bunga misol sifatida Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", U.Hamdamning "Na'matak" romanlari va A.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani ham-

da A.Yo'ldoshning "Puankare" hikoyasini misol sifatida keltirish mumkin. Chunki bu asarlar mualliflari nazariy qoliplarga amal qilmaydi. Mualliflar biz ko'nikkan stereotiplardan chiqib ketadi. Bu hodisani adabiy jarayonda novatorlik desa bo'ladi. Yoki, nazariyotchilar fikri nuqtayi nazari bilan yondashsak, aksincha baholash mumkin. Chunki Ch.Aytmatov vaqt falsafasiga amal qilmaydi, Tog'ay Murod esa sa'dan matn tuzib liro-epik tur miqyosida qalam suradi hamda U.Hamdam epik hajmni hisobga olmaydi. A.Pushkin esa janr muvozanatini qorishtiradi. A.Yo'ldosh ham qissa yoki romanga tatiydigan hajmni hikoya janrida namoyon qiladi.

Estetik baholash asarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga muvofiqiqligini ham o'z ichiga oladi. Asar kishini yuksaltirishi, ma'naviy olamini boyitishi kerak. Ekspertiza jarayonida matnning tarbiyaviy ahamiyati e'tibordan chetda qolmaydi. Masalan, yoshlar adabiyotida insoniylik, vatanparvarlik kabi g'oyalarning badiiy singdirilishi yuksak baholanadi. Shu bilan birga, bu g'oyalar quruq nasihat shaklida emas, badiiy bo'yoqlar orqali yetkazilishi shart. Haqiqiy san'at asari har doim kishi ruhiyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Adabiy tanqidchilarning, ayniqsa, o'zbek adabiy muhitida, badiiy asarga munosabatida biryoqlamalik kuzatiladi. Chunki asar muallifi do'sti yoki manfaatli lavozimdagi shaxs bo'lsa, albatta, maqtaladi. Bu maqola yoki tezis tavsifiy ruhda bo'ladi. Chunki arziqli yutuq ko'rsata olmaydi, kamchilikni ko'rsatay desa, qo'rqadi. Birorta talantli ijodkor chiqib qolsa ularning asari haqida tezis yoki maqola yozmaydi. Chunki vaqt yoki manfaat yo'q. Albatta, bu barcha tanqidchilarga ham taalluqli emas.

G'oyaviy-badiiy yaxlitlik va estetik baholash – adabiy ekspertizaning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ekspert bu mezonlar orqali asarning kelajakdagi qimmatini ham belgilaydi. Sifatsiz asar vaqt o'tishi bilan unutiladi, barcha mezonga javob beradigan matn adabiyot xazinasidan joy oladi. Ekspertiza jarayoni adabiy maydonda haqiqiy ijod namunalari saralab berishga yordam beradi. Bu kitobxonlarga faqat eng yaxshi va sara asarlarni yetkazib berish imkonini yaratadi. Fundamental baholash har doim badiiyat mezoniga sadoqatni talab etadi.

Matnning til qurilishi va uslubiy mukammalligi adabiy ekspertizaning asosini tashkil etadi. Ekspert matnning grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga muvofiqiqligi, shuningdek, tanlangan uslubning janr talablariga mosligini qat'iy tekshiradi. Lingvistik ekspertiza jarayonida matnning o'qilishi va mantiqiy ravonligi baholanadi. Sifatsiz til, mantiqiy uzilish va uslubiy g'alizlik asarning ekspertizadan o'ta olmasligiga asos bo'lishi mumkin. Har bir so'z va ibora muallifning badiiy niyatini aniq yetkazib berishga xizmat qilishi shart. Til g'oyaning moddiy ko'rinishi, uning silliqiqligi asarning umumiy darajasini belgilaydi.

Terminologik aniqlik, aynan, ilmiy va ommabop matnlar ekspertizasida katta ahamiyatga ega. Ekspert qo'llangan atamalarining zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga mosligini tekshiradi. Masalan, filologik tadqiqotda mumtoz terminlar va yangi nazariy tushunchalarning o'zaro muvofiqiqligi baholanadi. Noto'g'ri qo'llangan termin matnning ilmiy qimmatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Ekspert soha mutaxassisi sifatida har bir atamaning mazmun-mohiyatini nazorat qiladi. Bu matnning ishonchiligi va ilmiylik maqomini ta'minlaydi.

Zavqiddin SUVONOV,
filologiya fanlari doktori,
Denov TPI dotsenti

RAQAMLI POETIKA VA ESTETIKA



Yigirma birinchi asr axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi badiiy tafakkur tarzi va matn tabiatini tubdan o'zgartirib yubordi. An'anaviy kitob madaniyatidan raqamli muhitga o'tish jarayonida "matnning chiziqliligi", "muallifning mutloq hukmronligi", "asarning tugallanganligi" kabi mumtoz tushunchalar inqirozga yuz tutmoqda. Biroq bu yangi shakllarning estetik qonuniyatlari hamda poetik xususiyatlari hali yetarli darajada tizimlashtirilmagani asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Mavzuning bosh maqsadi bo'lajak amaliy adabiyotshunosga raqamli muhitda yaratiladigan badiiy matnlarning o'ziga xos tabiatini o'rgatish, kiberadabiyotning janrlar tizimi va poetik usullari haqida professional tushuncha berishdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:



riga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu asar bir vaqtning o'zida o'nlab turli yakunga ega bo'lishini ta'minlaydi.

"O'quvchi — hammuallif" tamoyili gipermatnli adabiyotning markaziy g'oyasi. Bunda muallif matnni to'liq va tugallangan shaklda bermaydi, o'quvchiga

- gipermatnli adabiyotning chiziqli bo'lmagan strukturasi tahlil qilish, interaktiv adabiyotda o'quvchining hammuallif sifatidagi rolini aniqlash;

- tarmoq adabiyoti va SI tomonidan yaratilgan generativ matnlarning badiiy qimmatini hamda originalligini o'rganish, shuningdek, raqamli adabiyotni an'anaviy adabiyotdan ajratib turuvchi multimodal elementlarni tadqiq etish.

Raqamli adabiyot shunchaki matnning ekranlashtirilgan shakli emas, kod, vizuallik, audio va interaktivlik sintezidan iborat yangi san'at turidir. Bu jarayonni o'rganish filolog-ekspertdan ham adabiy, ham texnologik savodxonlikni talab etadi.

Raqamli texnologiyalar adabiyot olamiga kirib kelishi bilan matnning an'anaviy tuzilishi tubdan o'zgardi. "Gipermatn" tushunchasi — raqamli adabiyotning poydevori bo'lib, axborotni o'zaro bog'langan tugunlar shaklida taqdim etadi. Biz o'rgangan an'anaviy kitoblarda sahifalar birin-кетин keladi va o'quvchi voqealar zanjirini muallif chizgan chiziqli bo'ylab kuzatadi. Raqamli muhitda esa matn bloklari bir-biri bilan elektron havolalar orqali ulanadi. Bu holat o'quvchiga matn ichida erkin harakatlanish va o'zi istagan yo'nalishni tanlash imkoniyatini beradi. Gipermatnli adabiyot o'quvchidan faol ishtirokni talab qiladigan murakkab intellektual maydondir. Matnning bu shakli adabiyotshunoslikka "ko'p variantli sujet" tushunchasini olib kirdi.

Gipermatnli asarning o'ziga xosligi chiziqli bo'lmagan(non-linear) tabiatida ko'rinadi. An'anaviy sujetda voqealar sabab va oqibat qonuniyatiga ko'ra, ma'lum bir nuqtadan boshlanib, yakun sari intiladi. Gipermatnli poetikada asarning yagona o'qi mavjud bo'lmaydi. O'quvchi ekran-dagi biror so'z yoki belgi ustiga bosish orqali voqealar rivojini butunlay boshqa tomonga burib yuborishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi interaktiv loyihalarda qahramonning taqdiri kitobxonning qaro-

imkoniyatlar maydonini taqdim etadi. O'quvchi o'zi tanlagan havolalar orqali matnning yangi qirralarini ochadi va o'ziga xos individual sujet yo'lini yaratadi. Ekspert nuqtayi nazaridan qaraganda bu jarayon badiiy idrokning mutlaqo yangi bosqichidir. Kitobxon endi passiv kuzatuvchi roldan chiqib, voqealar yaratuvchisiga aylanadi. Muallif va o'quvchi orasidagi masofa qisqarib, ijodiy hamkor-ga aylanishadi. Badiiyatdagi "izchillik" tushunchasi gipermatnli asarlarda yangicha ma'no kasb etadi. An'anaviy matnda izchillik so'z va gaplarning mantiqiy ketma-ketligi orqali ta'minlansa, raqamli muhitda assotsiativ bog'lanishlar asosiga quriladi. Kishi ongi axborotni qanday qabul qilsa, gipermatn ham shunday tuziladi. Bir voqeadan ikkinchisiga o'tish mantiqiy bosqichlar orqali emas, g'oyaviy o'xshashlik yoki ramziy ishoralar orqali amalga oshirish mumkin. O'zbek raqamli nasridagi tajribalarda lirik chekinish va asosiy hikoya orasidagi bog'liqlik aynan shu usulda yaratiladi. Bu kitobxonga matnning keng qamrovli xaritasini ko'rish imkonini beradi.

Gipermatnli asarlarda asarning boshlanishi va yakuni nisbiy tushunchalardir. An'anaviy kitob muqova bilan cheklangan bo'lsa, raqamli matn cheksizlikka intiladi. O'quvchi matnning istalgan joyidan o'qishni boshlashi va istalgan nuqtada to'xtatishi mumkin. Matn ichidagi havolalar ba'zan tashqi manba, boshqa asar yoki audiovizual materiallarga olib chiqadi. Bunday ochiq struktura asarning chegaralarini yo'qotib yuboradi. Ekspert bunday asarlarni tahlil qilganda yaxlitligini emas, tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasini o'rganadi. Badiiy asar endi doimiy harakatdagi tirik organizmga aylanadi.

Multimodallik — gipermatnli adabiyot badiiyatining ajralmas qismidir. Matn bloklari orasida rasm, musiqiy namuna yoki qisqa videolavhalar uchrashi odatiy holga aylandi. Bu elementlar matnning

mazmunini boyitadi va o'quvchining his-tuyg'ulariga kuchliroq ta'sir qiladi. Masalan, she'riyatda ramziy tasvirlar bilan birga musiqiy fonning berilishi she'rning terapevtik va estetik quvvatini oshiradi. Raqamli matn faqat lisoniy birliklar bilan cheklanib qolmaydi. Vizual va audio unsurlar sujet rivojiga bevosita aralashadi va asarning umumiy badiiyatini shakllantiradi. Kitobxon matnni o'qiydi, ko'radi va tinglaydi. Ekspert raqamli adabiyotni tahlil qilayotganda texnik vositalarning badiiy vazifasini ham baholaydi. Har bir havola yoki interaktiv tugma asarning g'oyasiga xizmat qilishi kerak. Agar texnik imkoniyatlar shunchaki bezak bo'lib qolsa, asarning badiiy qimmatini pasayadi. Raqamli muhitdagi o'zbek adabiyoti hozir o'zining yangi ifoda shakllarini izlamog'da. Bu jarayonda an'anaviy milliy tasvir vositalari raqamli imkoniyatlar bilan sintez qilinmoqda. Yangi poetika matnning ekrandagi ko'rinishi, ranglar jilosi va havolalar mantig'ini o'z ichiga oladi. Bu filologiyani zamonaviy media san'ati bilan yaqinlashtiradi.

Gipermatnli adabiyot va chiziqli bo'lmagan sujet badiiy tafakkurning inqilobiy bosqichidir. Kishini matn bilan jonli va interaktiv muloqotga kirishishga undaydi. Chiziqli bo'lmagan sujet o'quvchining erkinligini ta'minlab, asarning ko'p qirrali bo'lishiga yo'l ochadi. Muallif roli matnni "quruvchi" va "yo'naltiruvchi" darajasiga o'zgaradi. Raqamli poetika an'anaviy qoliqlarni buzib, adabiyotni zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan boyitadi. Bu yangi adabiy borliqni tushunish uchun ekspertdan ham nazariy, ham texnik tayyorgarlik talab etiladi. Matnning yangi hayoti aynan raqamli kengliklarda davom etmoqda.

Kiberadabiyot — adabiyotshunoslikning dinamik va multimediasiy shakli, bo'lib, badiiy matnni kompyuter o'yinlari mexanikasi bilan birlashtiradi. Asar faqat o'qilmaydi, "o'ynaladi" yoki interaktiv tarzda boshqariladi. Kiberadabiyot an'anaviy hikoyachilik an'alarini saqlagan holda harakat, tanlov va vizual estetikani qo'shadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchining asar ichidagi virtual olamga sho'ng'ishiga qaratiladi. Vizual novella, matnli kvest va interaktiv fantastika kiberadabiyotning asosiy janrlaridir. Ekspert bu jarayonda matnning o'yin qoidalarini bilan qanday bog'langani va badiiy tilning interaktiv muhitdagi imkoniyatlarini tadqiq etadi.

Interaktivlik kiberadabiyot badiiyatining markaziy ustunidir. An'anaviy kitobda o'quvchi voqealarga ta'sir o'tkaza olmaydi, kiberadabiyotda matn o'quvchining harakatiga javob beradi. Masalan, o'zbek tilidagi vizual novellalar loyihalarida o'quvchi dialoglarni tanlashi orqali qahramonning xarakteri va sujet yo'nalishini o'zgartiradi. Agar o'quvchi qahramon uchun xavfli yo'lni tanlasa, matn unga fojiali yakunni ko'rsatadi, agar oqilona tanlov qilsa, hikoya ijobiy yakun topadi. Bu jarayonda matn o'quvchi bilan muloqotga kirishuvchi jonli tizim vazifasini o'taydi. Matnning o'zgaruvchanligi uni an'anaviy statik matndan tubdan ajratib turadi.

Vizual novella — kiberadabiyotning eng ommabop shakli, unda matn vizual tasvir, musiqiy fon va ovoqli effektlar

bilan uyg'unlashadi. Qahramonning tashqi ko'rinishi va emotsiyalari ekranda aks etib turadi, bu o'quvchining badiiy idrokini osonlashtiradi. O'zbek tilidagi interaktiv matnlarda milliy kolorit, tarixiy libos va o'zbekona muloqot madaniyati vizual shaklda taqdim etilishi matnning ta'sir quvvatini oshiradi. Bu shakl, ayniqsa, yosh avlod uchun adabiyotni jozibali qilishning samarali yo'li. Matn vizual kontent bilan raqobatlashmaydi, aksincha unga chuqur ma'no va mantiqiy asos bag'ishlaydi.

Kiberadabiyotda "ergodiklik" tamoyili amal qiladi. Bu atama o'quvchidan matnni o'qish uchun ma'lum bir "kuch" yoki "harakat"(masalan, kvestlarni yechish, tugmalarni bosish) talab qilinishini bildiradi. Agar o'quvchi kerakli harakatni bajarmasa, matn davom etmaydi. Bu holat kitobxonning asarga bo'lgan mas'uliyati va diqqatini kuchaytiradi. Masalan, matnli kvestlarda(text quests) qahramon qorong'i xonadan chiqishi uchun o'quvchi matn ichidagi yashirin kalit so'zlarni topishi kerak. Bunday o'yinli element adabiyotni intellektual sarguzashtga aylantiradi. O'quvchi asarning ichida yashaydi va taqdirini hal qiladi. Kiberadabiyot badiiyatida vaqt va makon tushunchalari ham o'zgaradi. An'anaviy asarda vaqt o'tmishdan kelajakka qarab chiziqli oqadi. Kibermatnda o'quvchi "o'yinni saqlab qo'yish"(save) yoki "ortga qaytish"(restart) orqali vaqtni boshqarishi mumkin. Bu imkoniyat o'quvchi "agar boshqacha qaror qabul qilganimda nima bo'lardi?" degan savolga javob topishiga yordam beradi. Bunday tajriba kishining tanlov erkinligi va javobgarlik hissini tarbiyalaydi. Makon esa cheksiz havola va virtual sahifalar orqali kengayib boradi. Kiberadabiyot asarni yopiq qog'oz olamidan chiqarib, uni dinamik raqamli makonga ko'chiradi.

Ma'lum bo'ldiki, raqamli adabiyot texnologiya va ijod sintezidan tug'ilgan mutlaqo yangi hodisadir. Gipermatnli tuzilma, kiberadabiyotning interaktiv imkoniyatlari va tarmoq adabiyotidagi tezkor muloqot an'anaviy "muallif-matn-o'quvchi" zanjirini tubdan o'zgartirib, kitobxonni passiv iste'molchidan faol hammuallif darajasiga ko'taradi. Raqamli poetika chiziqli bo'lmagan sujet, multimodallik va algoritmik ijodkorlik kabi tushunchalar bilan boyiydi. Mavzuning filolog-ekspert uchun ahamiyati shundaki, zamonaviy media makonida matnning yashash qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi. SI tomonidan yaratilayotgan generativ matnlar va tarmoqdagi *fanfikshn* kabi ommaviy janrlar adabiyot chegaralarini kengaytirib, mutaxassisdan estetik did, texnik savodxonlikni ham talab etmoqda. Xulosa qilib aytganda, raqamli adabiyot kishi tafakkurining cheksizligini raqamli kodlar tilida ifoda etmoqda. Bu sohani o'rganish kelajak adabiyotining qiyofasini belgilashda va milliy adabiyotni jahon raqamli madaniyatiga integratsiya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli matn adabiyotning texnologik inqilob davridagi yangi, dinamik va interaktiv hayotidir.

Usmon QOBILOV,
SamDU professori,
filologiya fanlari doktori



Zamonaviy texnologiyalar asrida insoniyat axborot yuklamasi, doimiy zoʻriqish va ruhiy tushkunlik kabi jiddiy muammolar bilan toʻqnash kelmoqda. Mumtoz psixologiya va tibbiyot usullari bilan bir qatorda kishi ruhiyatini tiklashda badiiy soʻzning qudratidan foydalanish zaruriyati tugʻilmoqda, biroq adabiyotning shifobaxsh imkoniyatidan tizimli foydalanmaslik asosiy muammo boʻlib qolmoqda.

Bu mavzuning bosh maqsadi – boʻljak amaliy adabiyotshunosga badiiy adabiyotning terapevtik xususiyatlarini oʻrgatish, biblioterapiya metodikasini egallash va matn orqali shaxs ruhiyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatish koʻnikmasini shakllantirish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

biblioterapiyaning nazariy-tarixiy asoslarini tadqiq etish; turli ruhiy holat uchun mos adabiy janrlarni saralash tamoyillarini oʻrganish; identifikatsiya, katarsis va insayt jarayonlarining matn tahlilidagi oʻrnini aniqlash hamda ekspressiv yozish texnikalarini amaliyotga tatbiq etish. Adabiy terapiya matnni shunchaki oʻqish emas, kishining ichki kechinmalarini davolashga yoʻnaltirilgan murakkab psixofiziologik jarayon sifatida koʻrib chiqadi. Bu jarayon mutaxassisdan ham nozik filologik did, ham chuqur psixologik bilimni talab etadi. Bu bilan adabiyot shunchaki estetik zavq manbayi emas, shaxsning ruhiy yaxlitligini taʼminlovchi amaliy vositaga aylanadi.

“Biblioterapiya” atamasi grekcha “biblion”(kitob) va “therapeia”(davolash) soʻzlarining birikmasidan tashkil topgan. Bu tushuncha kishining badiiy matn bilan mulqoti jarayonida yuzaga keladigan ijobiy oʻzgarishlarni ifodalaydi. Kishi asarni mutolaa qilayotganda matndagi voqea va personajlar taʼsirida oʻzining ichki olamini qayta kashf etadi. Bu fan sohasi adabiyotshunoslikning estetik quvvatini psixologiyaning shifobaxsh usullari bilan birlashtiradi. Mutolaa jarayoni kishi ongostida yashiringan qoʻrquv, tushkunlik va ogʻriqli nuqtalarni yumshatish xususiyatiga ega. Tadqiqotchilar biblioterapiyani kishi shaxsiyatini yaxlitlashga xizmat qiladigan gumanitar texnologiya deb hisoblashadi. Bu yoʻnalish kitobni maʼlumot tashuvchidan ruhiy madadkor darajasiga koʻtaradi.

Biblioterapiyaning tarixiy ildizlari qadimgi Misr va Yunonistonga borib taqaladi. Firʼavn Ramses II ning kutubxonasi peshtoqiga “Ruh shifoxonasi” degan soʻzlar yozilgani bejiz emas. Antik davr faylasuflari tragediya janrini tomoshabin uchun ruhiy poklanish vositasi deb bilishgan. Oʻrta asrlarda Sharq madaniyatida Qurʼoni karim oyatlari va tasavvufiy sheʼriyatdan tushkunlikni yengishda keng foydalanilgan. XIX asrga kelib Gʻarb tibbiyotida kitobxonlik rasmiy ravishda shifoxonalarda qoʻllana boshladi. XX asr boshlarida amerikalik Semyuel Krozer “biblioterapiya” tushunchasini ilmiy isteʼmolga kiritdi. Bugungi kunda bu soha tibbiyot, taʼlim va ijtimoiy sohalarida ham mustahkam oʻrin egallagan.

Biblioterapiya jarayonining birinchi muhim bosqichi **identifikatsiya** deb ataladi. Bunda oʻquvchi asar qahramonining xarakteri, taqdiri yoki muammolari bilan oʻz hayoti orasida oʻxshashlik topadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidagi Kumushbibi yoki Otabekning iztiroblarini oʻqigan kishi shaxsiy munosabatlaridagi ogʻriqlarni qahramon obraziga koʻchiradi. Bu jarayon oʻquvchiga “Men bu muammoda yolgʻiz emasman” degan tuygʻuni beradi. Identifikatsiya kitobxon va matn orasida ishonch koʻprigini quradi. Oʻzganing dardini his qilish orqali kishi oʻzining dardini tushuna boshlaydi. Bu bosqich muvaffaqiyatli kechsa, keyingi ruhiy oʻzgarishlar uchun zamin tayyor boʻladi.

Jarayonning ikkinchi va eng taʼsirli bosqichi **katarsis** tushunchasidir. Bu atama yunoncha “poklanish” maʼnosini anglatadi va kuchli hissiy portlashdan keyingi ruhiy yengillikni ifodalaydi. Kitobxon qahramon bilan birga yigʻlaydi, azoblanadi va voqealar kulminatsiyasida ichidagi siqiq tuygʻularni tashqariga chiqaradi. Erkin Vohidov sheʼrlaridagi dardli misralar yoki Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi onaga boʻlgan

sogʻinch oʻquvchini hissiy boʻshashishga undaydi. Katarsis kishining ruhiy bloklarini ochadi va stressdan xalos boʻlishga yordam beradi. Bu bosqich mutolaaning eng yuqori estetik va davolash nuqtasi hisoblanadi.

Biblioterapiyaning yakuniy bosqichi **insayt** deb yuritiladi. Bu tushuncha kutilmagan anglash, muammoning mohiyatini ichdan tushunish va yangi yechimni topish demakdir. Kitobxon asar qahramoni qiyinchiliklarini qanday yengib oʻtganini koʻrgach hayoti uchun yangi yoʻnalish belgilaydi. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asaridagi xotira va sadoqat haqidagi mulohazalar kishini oʻtmishiga boshqacha nazar tashlashga majbur qiladi. Insayt natijasida oʻquvchining dunyoqarashi kengayadi va u ruhan ulgʻayadi. Anglash lahzasi kishini tushkunlik iskanjasidan olib chiqib, yashash uchun yangi kuch bagʻishlaydi.

Zamonaviy fan biblioterapiyani ikki asosiy tur – klinik va taraqqiyot biblioterapiyasiga ajratadi. **Klinik biblioterapiya**

BIBLIOTERAPIYA

shifokor va psixoterapevtlar tomonidan ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlar bilan ishlashda qoʻllaniladi. Bunda matn aniq tashxis asosida, dori-darmonlar bilan birga yordamchi vosita sifatida tanlanadi. **Taraqqiyot biblioterapiyasi** sogʻlom kishi uchun moʻljallangan. U shaxsiy inqirozlarni yengish, oʻzini rivojlantirish va hayotiy qiyinchiliklarga tayyor turish maqsadida kutubxonachi yoki pedagog yordamida amalga oshiriladi. Maktab adabiyot darslarida asar qahramonlarining axloqiy tanlovini muhokama qilish ham aslida taraqqiyot biblioterapiyasining bir koʻrinishidir. Bu yoʻnalish kishining ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

Ekspert bu jarayonda matnning oʻquvchi ruhiyatiga taʼsir etish mexanizmlarini tahlil qilishi lozim. Matn – murakkab psixologik dastur. Har bir asar ritmi, metafora tizimi va qahramonlar arxetipi oʻquvchiga turlicha taʼsir qiladi. Masalan, sheʼriyatdagi ohangdorlik asab tizimini tinchlantirish xususiyatiga ega, sarguzasht janri kishining hayotiy quvvatini faollashtiradi. Ekspert kitobxonning ruhiy ehtiyojini toʻgʻri aniqlab, unga “adabiy dori” tayinlaydigan mutaxassis. Matn tahlili bu oʻrinda estetik doiradan chiqib, amaliy psixologik yordam darajasiga koʻtariladi. Yondashuv adabiyotshunoslikning ijtimoiy ahamiyatini yanada yuksaltiradi.

Biblioterapiya samaradorligi oʻquvchining badiiy asarga boʻlgan munosabatiga bogʻliq. Kitobxon matnga qanchalik chuqur kirishsa, undagi shifobaxsh jarayonlar shunchalik tez sodir boʻladi. Oʻzbek adabiyotidagi “Sariq devni minib” kabi bolalar asarlari yosh oʻquvchida qiyinchilikdan qoʻrqmaslik va doʻstlik qadrini shakllantiradi. Katta yoshdagilar uchun Gʻafur Gʻulomning optimizmga toʻla asarlari tushkunlikka qarshi eng yaxshi vosita boʻla oladi. Biblioterapiya matnni jonli mulqotga aylantiradi. Kishi kitob varaqlarida oʻz savollariga javob topadi. Mutolaa shaxsning ichki suhbatiga aylanib, maʼnaviy sogʻlomlikka boshlaydi.

Adabiy terapiya jarayonida matn tanlash – oʻta nozik va masʼuliyatli bosqich. Har bir badiiy asar oʻziga xos emotsional quvvatga ega, kishi ruhiyatining turli qatlamiga har xil taʼsir koʻrsatadi. Mutaxassis matn tanlashda oʻquvchining yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi va ayni damdagi ruhiy holatini birlamchi mezon sifatida qabul qiladi. Notoʻgʻri tanlangan kitob kishining ichki jarohatlarini yangelishi yoki tushkunlikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun ham adabiy matn tanlash sanʼati aniq ilmiy va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Matn oʻquvchi uchun maʼlumot manbayi emas, shifobaxsh vosita boʻlib xizmat qilishi shart. Bu yoʻnalishda asarning badiiy saviyasi terapevtik samaradorligi bilan uygʻun holda baholanadi.

“Ertakoterapiya” sohaning eng qadimiy va ommabop yoʻnalishlaridan. Ertak kishining ong ostidagi ramz va arxetiplar bilan toʻgʻridan toʻgʻri mulqotga kirishadi. Masalan, oʻzbek xalq ertaklaridan “Zumrad va Qimmat” asari bolalarda adolat tuygʻusini shakllantirish va qoʻrquvlarni yengishda yordam beradi. Ertakdagi yaxshilikning yomonlik ustidan qozonadigan muqarrar gʻalabasi oʻquvchida hayotga nisbatan ishonch uygʻotadi. Bolalar uchun moʻljallangan matn soddada, ravon va vizual tasvirlarga boy boʻlishi lozim. Bu janr orqali kishi

murakkab hayotiy muammolarni xavfsiz ramziy makonda hal qilish koʻnikmasini hosil qiladi.

Sheʼriy terapiya kishining hissiy tushkunligini davolashda beqiyos quvvatga ega. Sheʼriyatning ritmi, musiqiyliigi va qofiyasi kishi asab tizimini tinchlantirish xususiyatiga ega. Alisher Navoiy gʻazallaridagi falsafiy mushohadalar yoki Erkin Vohidov misralaridagi samimiylik kishini oʻz ichki dunyosi bilan yuzlashtiradi. Ritmik matn oʻqish yurak urishi va nafas olish maromini tartibga soladi. Bu, oʻz navbatida, ruhiy zoʻriqishlarni kamaytiradi. Sheʼriyat kishini ayni damdagi kundalik tashvishlardan uzoqlashtirib, estetik zavq olamiga olib kiradi. Goʻzal tushunchalar va ohangdor soʻzlar ruhiy tushkunlikka qarshi eng samarali malham boʻlib xizmat qiladi.

Nasriy asarlar koʻproq kishining ijtimoiy moslashuvi va hayotiy muammolarni tahlil qilish jarayoniga yordam beradi. Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi onaga boʻlgan sogʻinch yoki sadoqat mavzulari oʻquvchida mehr-oqibat tuygʻularini faollashtiradi. Roman va qissalardagi qahramonlarning hayot yoʻli kitobxon uchun oʻziga xos tajriba maktabi vazifasini oʻtaydi. Qahramonning qiyinchiliklarni yengib oʻtishi oʻquvchida “Men ham buni uddalay olaman” degan ishonchni mustahkamlaydi. Nasriy matn kishining kognitiv jarayonlarini rivojlantiradi va unga hayotiy voqealarni tizimli ravishda idrok etishni oʻrgatadi. Bu ruhiy barqarorlikni taʼminlashda juda muhimdir.

Matn tanlashda “psixologik oyna” tamoyili asosiy oʻrin tutadi. Asar oʻquvchining oʻz muammolarini chetdan kuzatishi va tahlil qilishiga imkon berishi kerak. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidagi anʼanalar va shaxsiy erkinlik orasidagi toʻqnashuv zamonaviy oʻquvchi uchun ham oʻzlikni anglashda yordam beradi. Matn oʻquvchini qaygʻuga botirishi kerak emas, yechim sari yoʻl koʻrsatishi lozim. Terapevtik matn oʻquvchining ichki ziddiyatlarini yumshatishga xizmat qiladigan metaforalar bilan boyitiladi. Bu metaforalar kishi ongining himoya qatlamlarini yengib oʻtib, toʻgʻridan toʻgʻri qalbga yetib boradi.

Klinik biblioterapiyada matn tanlashda asarning yakuni va umumiy ruhiga alohida eʼtibor beriladi. Ogʻir ruhiy holatdagi kishi uchun fojiali yakun topgan yoki umidsizlik ruhidagi asarlar tavsiya etilmaydi. Gʻafur Gʻulomning nekinlikka toʻla asarlari – tushkunlikka qarshi kurashishda eng yaxshi namuna. Matn oʻquvchida yashashga ishtiyoq uygʻotishi va ijobiy motivatsiya berishi shart. Mutaxassis asardagi soʻzlarning ritmi va tovushlar tovlanishini ham inobatga oladi. Ravon, musiqiy va ijobiy obrazlarga boy lisoniy qurilma kishining emotsional holatini muvozanatlashtiradi. Kitob varaqlaridagi har bir obraz oʻquvchini ruhiy tiklanish sari yetaklovchi vositadir.

Amaliy adabiyotshunos matndagi metafora va obrazlar tizimining terapevtik quvvatini baholashda milliyliigi va tushunarliiligini ham nazorat qiladi. Oʻzbek oʻquvchisi uchun Togʻay Murod asarlaridagi milliy qadriyatlar va soddada kishilar hayoti ruhiy yaqinlik hissini beradi. Bu terapevtik jarayonning tezroq va samaraliroq kechishini taʼminlaydi. Matn oʻquvchining hayotga boʻlgan sevgisini qaytarishi va ichki resurslarni faollashtirishi kerak. Badiiy asar kishini muammolarining asiri boʻlib qolishdan qutqaradi. Toʻgʻri tanlangan matn shaxsning ruhiy yaxlitligini tiklovchi eng xavfsiz va taʼsirli sanʼat asari sifatida xizmat qiladi.

Boʻljak amaliy adabiyotshunos biblioterapiya orqali badiiy matnning kishi ongostiga taʼsir qilish mexanizmlarini, identifikatsiya va katarsis kabi murakkab psixologik jarayonlarni tahlil qilishni oʻrganadi. Bu bilimlar mutaxassisga muayyan ruhiy holatlar uchun maqsadli “adabiy dori”larni tanlashda ham yordam beradi. Mavzuning ahamiyati shundaki, filologiya va psixologiya chorahasida yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bugungi stressga boy dunyoda biblioterapiya usullarini bilish ekspertga maktab, shifoxona va ijtimoiy markazlarda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Ekspressiv yozish va ijodiy terapiya amaliyoti kishining ichki dunyosini tartibga solishi uchun eng xavfsiz va samarali yoʻl ekani dalillandi. Xulosa qilib aytganda, adabiy terapiya adabiyotni hayotga yaqinlashtiradi va kishining ruhiy yaxlitligini tiklash orqali yashash sifatini oshiradi. Bu sohani egallagan mutaxassis jamiyatning maʼnaviy meʼmoriga aylanadi, zero sogʻlom ruhli kitobxon barqaror jamiyatning poydevoridir.

Baxtiyor MENGLIYEV,
TAFU tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori

KITOBXON PERSEPSIYASI TAHLILI

Zamonaviy adabiyotshunoslikda matn mazmuni o'quvchi tomonidan qanday idrok etilishi bilan ham belgilanadi. Bugungi kitobxon didining o'zgarishi va axborot iste'moli shakllarining rang-baranglashuvi badiiy asarning ijtimoiy ta'sirini oldindan aytib berishni murakkab muammo sifatida o'rta tashlamoqda. Ko'pincha sifatli badiiy asar maqsadli auditoriyaga yetib bormaydi yoki noto'g'ri talqin qilinadi, bu adabiy muloqotning uzilishiga sabab bo'ladi. Mavzuning asosiy maqsadi – bo'lajak amaliy adabiyotshunoslarga o'quvchi persepsiyasi (idroki) qonuniyatlarini o'rgatish hamda auditoriyani tizimli tahlil qilish metodikasini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: badiiy idrokning psixologik mexanizmlarini tadqiq etish; auditoriyani ijtimoiy-demografik va qiziqishlar bo'yicha segmentatsiyalash usullarini o'zlashtirish; jamiyatlardagi mutolaa madaniyatini sotsiologik metodlar yordamida diagnostika qilish hamda kitobxon bilan samarali qayta aloqa (feedback) o'rnatish yo'llarini o'rganish. O'quvchi persepsiyasini o'rganish adabiyotshunoslikni "kitob javoni"dan jonli muloqotga olib chiqadi. Va bitiruvchi auditoriya ehtiyojini tushunadigan va adabiy jarayonni boshqara oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Badiiy persepsiya – o'quvchi tomonidan matnni idrok etish, his qilish va anglash jarayoni. Bunda metodologiya o'quvchining ruhiy holati, intellektual tayyorgarligi va estetik tajribasi matn ma'nosini qanday o'zgartirishini o'rganadi. Persepsiya matnni ko'rish jarayonidan ancha murakkab, muallif yaratgan obrazni o'quvchi o'z tasavvurida qayta jonlantirishi sanaladi. Tadqiqotchi bu jarayonda matndagi "bo'shliq" o'quvchi ongi tomonidan qanday to'ldirilishini tahlil qiladi. Bunday yondashuv asarning yashirin imkoniyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Idrok jarayoni o'quvchining shaxsiy dunyoqarashi bilan asar orasida o'ziga xos muloqot maydonini yaratadi.

Badiiy idrok psixologiyasi o'quvchining matn bilan to'qnashganda kechiradigan hissiy reaksiyalarini o'rganadi. Matn o'quvchi ongida vizual va emotsional obrazlarni qo'zg'atuvchi impuls vazifasini o'taydi. Masalan, Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi tabiat tasvirlarini o'qiyotganda o'quvchi xotirasidagi manzaralarga tayanib o'ziga xos ichki manzara yaratadi. Bu jarayonda o'quvchining sezgi a'zolari, xotirasi va tasavvuri faol ishtirok etadi. Tadqiqotchi uchun o'quvchining bu ichki dunyosi – asarning asl ijtimoiy qimmatini belgilovchi obyekt. Matn faqat o'quvchi ongi orqali o'tgandagina haqiqiy estetik quvvatini namoyon qiladi.

Idrok jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchining estetik tayyorgarligi va intellektual salohiyatiga bog'liq. Har bir kitobxon matndan bilim darajasiga mos keladigan ma'nolarni ajratib oladi. Masalan, mumtoz g'azalni mutolaa qilishda ramz va majozni tushunish darajasi o'quvchidan ma'lum bir madaniy yukni talab etadi. Tayyorgarligi bo'lmagan o'quvchi uchun matn yuzaki ko'rinishi mumkin, professional kitobxon undagi falsafiy qatlamlarni kashf etadi. Amaliy adabiyotshunoslik bu farqlarni o'rganish orqali turli auditoriya uchun mos keladigan talqin usullarini ishlab chiqadi.

Persepsiya jarayonida matndagi "aniqlanmagan joy" yoki "bo'shliq"lar o'quvchi ijodkorligini yuzaga chiqaruvchi asosiy omildir. Muallif hamma narsani batafsil bayon qilmaydi, aksincha, o'quvchiga tasavvur qilish uchun keng imkoniyat qoldiradi. Bu "bo'shliq"lar o'quvchi tomonidan

shaxsiy tajribasi asosida to'ldiriladi. Masalan, asar qahramonining tashqi ko'rinishi haqida qisqa ma'lumot berilsa, o'quvchi qolgan jihatlarini o'zi chizib oladi. Tadqiqotchi uchun bu to'ldirish jarayoni qiziqarli ilmiy obyekt, u kitobxonning ijodiy salohiyatini o'lchashga yordam beradi. Asarning ko'p ma'noliligi aynan shu jarayon orqali ta'minlanadi.

Idrok jarayoni o'quvchining emotsional rezonans holatiga tayanadi. Asar qahramonlarining kechinmalari o'quvchining shaxsiy quvonch va dardlari bilan hamohang bo'lganda persepsiya chuqurlashadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini o'qiyotgan kishi onasiga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqadi. Bunda matn o'quvchi ruhiyatini tarbiyalov-

matnga bo'lgan qiziqishini ushlab turish mexanizmlarini ham o'rganadi. Badiiy asar tuzilishi bilan o'quvchiga ma'lum bir intellektual o'yin taklif etadi. Sujetdagi kutilmagan burilish, sir va yashirin ma'nolar persepsiyani faollashtiradi. Masalan, detektiv janridagi asarda o'quvchi tadqiqotchi bilan birga mantiqiy zanjirni tiklashga harakat qiladi. Bunday faol ishtirok matnning jozibadorligini oshiradi. Tadqiqotchi o'quvchi diqqatini qaysi nuqtalar eng ko'p jalb qilishini statistik va psixologik tahlil orqali aniqlaydi. Bu bilimlar ommabop kontent yaratish uchun asos bo'ladi.

Badiiy persepsiya jarayonida o'quvchining ijtimoiy maqomi va jinsi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turli ijtimoiy qatlam vakillari bir xil matnni turlicha qabul qiladi.



chi va transformatsiya qiluvchi qurolga aylanadi. Tadqiqotchi o'quvchining hissiy reaksiyalarini o'rganib, asarning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini aniqlaydi. Hissiy bog'liqlik matnni shaxsiy hayotning bir qismiga aylantiradi va uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta'minlaydi.

Amaliy metodologiya o'quvchining diqqatini boshqarish va

Masalan, iqtisodchi mutaxassis uchun Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz belgilari birinchi o'ringa chiqsa, shoir uchun tili va badiiyati muhimroq ko'rinadi. Amaliy adabiyotshunoslik bu turli qarashni "auditoriya prizmasi" orqali tahlil qiladi. Bu yondashuv matnning ko'pqirraliligi va turli ijtimoiy ehtiyojlarga javob bera

olishini isbotlaydi. Tadqiqotchi har bir "idrok varianti"ning o'ziga xos qimmatini e'tirof etadi.

Zamonaviy raqamli muhit o'quvchi persepsiyasiga yangi xususiyat olib kirdi. Endilikda matnlar ko'pincha giperhavola va vizual elementlar bilan birga taqdim etiladi. Bu o'quvchi diqqatining "parchalanishi" yoki, aksincha, matnni chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi. Elektron platformada kitob o'qish jarayoni "ekran idroki" (screen perception) deb ataluvchi yangi psixologik fenomenning paydo bo'lishiga olib keldi. Tadqiqotchi bu yangi sharoitda o'quvchi diqqatini saqlab qolish va matnning badiiy ta'sirini kamaytirmaslik yo'llarini izlaydi. Persepsiya metodologiyasi texnologik taraqqiyot bilan hamnafas ravishda muntazam yangilanib boradi.

Badiiy persepsiyani o'rganish adabiyotshunoslikka yangi hayot olib kiradi. Matn kitob javonida turganda "o'lik ashyo", kitobxon uni ochib o'qiganida hayotiy hodisaga aylanadi. O'quvchi ongi – muallif yaratgan dunyoni jonlantiruvchi va boyituvchi manba. Tadqiqotchi uchun o'quvchi persepsiyasi asarning cheksiz ma'nolarini ochish imkonini beruvchi laboratoriya. Idrok psixologiyasini bilish adabiyotni jamiyatga yaqinlashtirish va kishi ruhiyatidagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon adabiyotshunosni tahlilchidan o'quvchi qalbi va matn orasidagi professional vositachiga aylantiradi.

Adabiyot hammaga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi, shuning uchun amaliy adabiyotshunoslikda auditoriya tahlili o'tkaziladi. Bu jarayon kitobxonni ijtimoiy-demografik belgilari, ya'ni yoshi, jinsi, ma'lumoti va yashash joyi bo'yicha guruhlariga ajratishni ko'zda tutadi. Maqsadli auditoriyani aniqlash asarni samarali targ'ib qilish va to'g'ri yetkazish imkonini beradi. Har bir adabiy janr maxsus o'quvchisiga ega, ularning talab va ehtiyoji bir-biridan tubdan farq qiladi. Amaliy tadqiqotning muhim vazifasi turli janr uchun xos o'quvchi portretini yaratishdan iborat. Bu yondashuv adabiyotni aniq manzilli guruhlariga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Segmentatsiya jarayonida, birinchi navbatda, yosh omili hisobga olinadi. Bolalar adabiyoti, o'smirlarga mo'ljallangan asarlar va kattalar nasrining til qurilishi hamda mavzu ko'lam turlicha. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini tahlil qilishda boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik xususiyati va lug'at boyligi asosiy mezon qilib olinadi. O'smirlar auditoriyasi esa ko'proq sarguzasht va o'zlikni anglash mavzulariga qiziqadi. Tadqiqotchi har bir yosh guruhi uchun matnning qay darajada mos kelishini ilmiy asoslab berishi shart. Yosh bo'yicha tabaqalash matnning idrok etilish koeffitsiyentini oshirishga bevosita yordam beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy holat va ma'lumot darajasi ham auditoriya tahlilida muhim o'rin tutadi. Intellektual nasr yoki yuqori darajadagi falsafiy asarlar ko'proq akademik ma'lumotga ega kitobxon qatlamiga mo'ljallanadi. Masalan, Nazar Eshonqulning modernistik hikoyalarini tushunish uchun o'quvchidan ma'lum bir estetik tayyorgarlik va jahon adabiyoti tajribasi talab etiladi. Aksincha, ommabop detektiv yoki ishqiy roman kengroq va sodda auditoriya uchun xizmat qiladi. Tadqiqotchi matnning murakkablik darajasini o'quvchining intellektual salohiyati bilan qiyoslaydi. Bunday tahlil asarning bozor konyunkturasi-dagi o'rnini belgilab beradi.

Yashash joyi va mintaqaviy mansublik ham kitobxon didiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan. Shovqinli megapolisda yashovchi o'quvchi bilan qishloq muhitidagi kitobxonning mavzuga munosabati farqlanishi mumkin. Masalan, urbanistik mavzudagi asar shahar yoshlari orasida tez ommalashadi. Mintaqaviy til xususiyatlari, sheva elementlari va mahalliy qadriyatlar aks etgan matn ma'lum bir hudud auditoriyasi uchun qadrdonroq tuyuladi. Tadqiqotchi jo'g'rofiy segmentatsiya orqali badiiy asarlarning tarqalish xaritasini chizadi. Bu ma'lumotlar kitob savdosi va kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish uchun poydevor bo'ladi.

"O'quvchi persepsiyasini o'rganish va auditoriya tahlili" mavzusi – zamonaviy amaliy adabiyotshunoslikning markaziy yo'nalishlaridan. Bu mavzuni o'zlashtirish bo'lajak amaliy adabiyotshunosga badiiy matnni doimiy muloqot va harakatdagi "tirik organizm" sifatida ko'rish imkonini beradi. Tadqiqotchi o'quvchining ichki ruhiy dunyosi, "kutish uflari" va matndagi "bo'shliqlar"ni to'ldirish mexanizmlarini tushunish orqali adabiyotning haqiqiy ijtimoiy vazifasini anglab yetadi. Bu bilimlar filologni auditoriya bilan ishlash, ehtiyojlarini tahlil qilish va adabiy jarayonni boshqarishga tayyorlaydi. Mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, u kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning ilmiy vositalarini taqdim etadi. Auditoriya segmentatsiyasi va mutolaa sotsiologiyasi bo'yicha egallangan ko'nikmalar nashriyot ishi, media-targ'ibot va madaniy menejment sohalarida juda zarur. Qayta aloqa va moderatorlik usullari mutaxassisga matn atrofida faol intellektual muhit yaratishga yordam beradi. Xullas, mavzu adabiyotshunoslikni "Nima yozilgan?" degan savoldan "Qanday o'qilmoqda va jamiyatni qanday o'zgartirmoqda?" degan yuksak darajaga olib chiqadi. Bu yondashuv milliy adabiyotimizning raqobatbardoshligi va kelajak avlodlar ma'naviyatidagi mustahkam o'rnini ta'minlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Dilshod RAJABOV,
BuxDU professori,
filologiya fanlari doktori

ADABIY MOSLASHTIRISH

Bugungi shiddatli media makonda badiiy asarning asl shaklida saqlanib qolishi va keng ommaga yetib borishi murakkablashib borayotgani asosiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Kitobxonlik madaniyatining vizuallashuvi va auditoriya ehtiyojining o'zgarishi natijasida mumtoz hamda zamonaviy matnni yangi formatga o'tkazish zarurati tug'ilmoqda. Bu mavzuning asosiy maqsadi – bo'lajak amaliy adabiyotshunosda badiiy asarni turli media shakli, ijtimoiy qatlam va madaniy muhitga muvaffaqiyatli moslashtirish(adaptatsiya qilish) ko'nikmasini shakllantirish hamda bu jarayonning nazariy asoslarini o'rgatishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi: adabiy moslashtirishning ilmiy tamoyil va turlarini tizimlashtirish; matnni kino, teatr va raqamli formatga ko'chirishning texnik hamda badiiy jihatlarini tahlil qilish; moslashtirish jarayonida mualliflik huquqi va axloqiy me'yorlarga rioya etilishini baholash metodikasini o'zlashtirish. Adabiy moslashtirish asarning badiiy quvvatini boshqa bir san'at tili orqali qayta kashf etishdir. Bu jarayon mutaxassisdan ham adabiy manbani chuqur tahlil qilishni, ham yangi medianing texnik imkoniyatini tushunishni talab etadi. Adabiy meros va zamonaviy ijod namunalarini o'zining hayotiylikini saqlab, turli platformada yashashda davom etadi. Bu adabiyotshunoslikning amaliy imkoniyatini kengaytiruvchi muhim bo'g'indir.

Adabiy moslashtirish nazariyasi asarning turli media shaklida yashash qonuniyatlarini o'rganadi. Jarayon markazida "intertekstuallik" va "translyatsiya" tushunchalari yotadi. Nazariy jihatdan moslashtirish uch asosiy darajaga bo'linadi: lisoniy(tilni soddalashtirish), struktur(sujetni o'zgartirish) va media-transformatsiya(matnni kino yoki teatrga ko'chirish). Ekspert uchun asosiy muammo – asarning "ekvivalentligi", ya'ni yangi shaklda ham muallifning asl g'oyasi va ruhini saqlab qolishdir. Moslashtirish asl nusxa bilan doimiy muloqotdir. Bu tushuncha asarni yangi davr kitobxoni yoki tomoshabini uchun qayta kashf etish imkonini beradi.

Lisoniy moslashtirish darajasi matnning til xususiyatini maqsadli auditoriyaga muvofiq o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda matndagi murakkab arxizmlar, tushunilishi qiyin tarixiy atama va o'ta og'ir sintaktik qurilmalar soddalashtiriladi. Masalan, Alisher Navoiy g'azallaridagi "hajr" yoki "firoq" so'zlarining ma'nosini saqlab, zamonaviy "ayriliq"(separation) tushunchasi orqali tushuntirish lisoniy adaptatsiyadir. Ekspert tilning estetik jozibasini saqlab qolishi shart. Tilni soddalashtirish matnning badiiy qimmatini tushirmasligi, aksincha, o'quvchi bilan yaqin aloqa o'rnatishi lozim. Bu daraja ko'pincha darslik va ommabop nashrlar uchun xizmat qiladi.

Struktur moslashtirish asarning sujet chizig'i va kompozitsion qurilishidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bunda asarning asosiy voqealari saqlangan holda, ikkinchi darajali qahramonlar yoki cho'zilib ketgan bayonlar qisqartirilishi mumkin. Masalan, ulkan roman hajmidagi asarni ixcham qissa ko'rinishiga keltirish – struktur adaptatsiyaning yorqin namunasi. Ekspert asarning mantiqiy zanjiri uzilmasligini nazorat qiladi. Sujet dinamikasini oshirish maqsadida ba'zan voqealar ketma-ketligi o'zgartiriladi. Bu jarayon asarning umumiy ma'noviy butunligiga zarar yetkazmasligi zarur. Har bir o'zgarish muallifning badiiy niyatini quvvatlashi kerak.

Media-transformatsiya darajasi matnning butunlay boshqa san'at turi tiliga o'tishini anglatadi. Bu bosqichda yozma matn vizual tasvir, musiqa va harakatga aylanadi. Masalan, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining ekranlashtirilishi media-transformatsiyadir. Bunda so'z bilan berilgan tasvir kadr va ak-

tyor mahorati orqali namoyon bo'ladi. Ekspert yangi mediaga xos xususiyatni inobatga olgan holda asarni baholaydi. Matnning har bir satrini saqlab qolish imkonsiz bo'lgani uchun asosiy urg'u asarning ruhiyatiga qaratiladi. Bu daraja – adaptatsiyaning eng murakkab va ommabop shakli.

Ekvivalentlik muammosi ekspertning asosiy diqqat markazida turadi. Yangi yaratilgan mahsulot asl nusxaga qanchalik muvofiq ekani uning sifatini belgilaydi. Ekvivalentlik estetik va emotsional darajada ham bo'lishi lozim. Masalan, "Alpomish" dostonini bolalar uchun moslashtirishda qahramonning mardligi va vatanparvarligi(patriotism) g'oyasi bosh mezon sifatida saqlanishi shart. Ekspert asl niyatdan uzoqlashish holatlarini aniqlaydi. Agar moslashtirilgan matn muallif g'oyasiga zid kelsa, qimmatini yo'qotadi. Xolis baholash jarayoni asarning saqlanib qolishini kafolatlaydi.

Moslashtirish jarayoni – asl nusxa bilan doimiy muloqot. Bunda o'tmish va bugun, muallif va yangi ijodkor orasida fikr almashinuvi sodir bo'ladi. Har bir yangi variant asl matnning yashirin qiralarini ochib berishi mumkin. Masalan, mumtoz asarni zamonaviy teatr sahnasiga moslashtirish orqali undagi g'oyalarining bugungi kundagi dolzarbligi isbotlanadi. Ekspert bu muloqotning mazmunli va mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Moslashtirish orqali asar o'zining tor tarixiy chegarasidan chiqadi. Bu muloqot milliy adabiyotning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Amaliyotda moslashtirish ko'pincha "sadoqat tamoyili" asosida amalga oshiriladi. Ijodkor asl nusxaga qanchalik sodiq qolishi kerakligi borasida turli qarash mavjud. Ba'zan asarni butunlay yangicha talqin qilish unga foyda keltirsa, ba'zida haddan tashqari erkinlik mohiyatini buzadi. Ekspert bu muvozanatni saqlashga mas'ul. Masalan, tarixiy shaxs haqidagi asarni moslashtirishda dalillar va badiiy to'qima uyg'unligi buzilmasligi lozim. Har bir adaptatsiya o'ziga xos ijodiy litsenzyaga ega bo'lsa-da, asosiy manbaga hurmat bilan qarashi shart. Bu yondashuv adabiy an'analar davomiylikini ta'minlaydi.

Nazariy jihatdan moslashtirish "madaniy translyatsiya" vazifasini ham bajaradi. Asar bir tildan ikkinchi tilga gina emas, bir madaniy darajadan boshqasiga o'tkaziladi. Akademik doiralar uchun yozilgan murakkab falsafiy asar-

ni keng xalq ommasi uchun tushunarli qilish bu jarayonning bir qismidir. Masalan, Navoiy asarlaridagi tasavvufiy ramzlarni zamonaviy axloq me'yorlari orqali tushuntirish madaniy ko'priklar vazifasini o'taydi. Ekspert o'quvchi va muallif orasidagi masofani qisqartiradi. Bunday yondashuv adabiy merosni ijtimoiy aylanishda saqlab turadi. Ma'lumotning ochiqligi va tushunarligi moslashtirishning asosiy natijasidir.

Aytish mumkinki, adabiy moslashtirish nazariyasi matnning hayotiylikini ta'minlovchi mexanizmlarni o'rganadi. Uchta daraja – lisoniy, struktur va media – birga asarning keng auditoriyaga yetib borishiga xizmat qiladi. Ekvivalentlikni saqlash va asl nusxa bilan muloqot o'rnatish jarayoni ekspertga katta mas'uliyat yuklaydi. Moslashtirish – asarning yashash imkoniyatlarini kengaytirish. Sifatli adaptatsiya tufayli adabiyot yangi avlodlar uchun qadrlil va tushunarli bo'lib qolaveradi. Nazariy asoslar amaliyotni tartibga solib, adabiy jarayonning sog'lom rivojiga zamin yaratadi.

Amaliyotda moslashtirish ko'pincha maqsadli auditoriyaga qarab turlarga bo'linadi. Bolalar uchun moslashtirishda murakkab metafora va "og'ir" sahnalar "yumshatiladi". Maktab nashrlarida "didaktik moslashtirish" qo'llanadi, bunda asosiy e'tibor uning tarbiyaviy ahamiyatiga qaratiladi. Shuningdek, janriy moslashtirish ham mavjud, masalan, epik dostonning drama janriga yoki lirik g'azalning nasriy hikoyaga aylantirilishi. Har bir tur matnning qaysi elementini qoldirish va qaysisini o'zgartirish kerakligi bo'yicha o'z qoidalariga ega. Bu qoidalar matnning yangi muhitda o'z funksiyasini to'liq bajarishini ta'minlaydi.

Auditoriyaga yo'naltirilgan moslashtirishning eng nozik turi bolalar adabiyotiga tegishlidir. Kichik yoshdagi kitobxonlar dunyoqarashi va psixologiyasi murakkab falsafiy konsepsiyalarni qabul qilishga hali tayyor bo'lmaydi. Ekspert bu jarayonda matndagi qo'rqinchli tasvirlar, tushkunlik kayfiyati va murakkab ijtimoiy ziddiyatlarni olib tashlaydi yoki yengilroq shaklda taqdim etadi. Masalan, xalq dostonlaridagi shafqatsiz jang sahnalari bolalar uchun mo'ljallangan nashrlarda qahramonlik va jasorat motivlari bilan almashtiriladi. Bunda asarning qiziqarliligi ortadi. Bolalar matnni oson tushunishlari uchun til soddalashtiriladi va vizual tasvirlarga ko'p o'rin beriladi.

Maktab ta'limi uchun mo'ljallangan didaktik moslashtirish asarning tarbiyaviy kuchini oshirishga xizmat qiladi. Darslik muallifi asarni o'quv dasturi talabiga moslashtiradi. Bu jarayonda asarning asosiy g'oyasi yosh avlodning ma'naviy kamoloti bilan bog'lanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan faqat vatanparvarlik va oilaviy sadoqatni targ'ib qiluvchi parchalar tanlab olinishi didaktik yondashuvdir. Ekspert bu o'rinda asarning tarixiy haqiqatini saqlash bilan birga o'rgatuvchi xususiyatini birinchi o'ringa chiqaradi. Ma'naviy qadriyatlar matnning asosiy o'zagiga aylanadi.

Janriy moslashtirish matnning adabiy turini o'zgartirishni talab qiladi.

Epik dostonlar ko'pincha sahna uchun moslashtirilganda dramatik asarga aylanadi. Bu jarayonda bayonchining uzun nutqlari qahramonning jonli muloqotiga ko'chadi. Masalan, "Alpomish" dostonining pyesa ko'rinishidagi talqinida voqealar dinamikasi bir necha barobar tezlashadi. Ekspert janr qonuniyatlarini o'zgarishini nazorat qiladi. Sujetdagi ortiqcha tafsilotlar olib tashlanib, asosiy e'tibor konflikt va harakatga qaratiladi. Bu usul asarning teatrlashgan shaklda yangicha joziba kasb etishini ta'minlaydi.

Lirik asarlarning nasriy hikoyaga aylantirilishi janriy moslashtirishning yana bir ko'rinishidir. G'azallardagi yashirin ma'no va ramzlar o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun bayon shaklida yoziladi. Masalan, Navoiyning ishqi dostonlari asosida nasriy qissalar yaratilishi asarning ommaviylashishiga yordam beradi. Bunda she'riy vazn va qofiya o'rini mantiqiy izchillik va batafsil tasvir egallaydi. Ekspert she'riyatdagi emotsional quvvatning nasrda ham saqlanishini ta'minlashi kerak. O'quvchi asarni o'qiyotganda shoirning badiiy olamini nasriy tilda his qiladi. Bu turdagi moslashtirish bilim darajasi turlicha kitobxonlarni birlashtiradi.

Ilmiy-ommabop moslashtirish murakkab tadqiqotlarni keng xalq ommasi uchun tushunarli qilishni ko'zda tutadi. Akademik tildagi og'ir terminlar kundalik hayotdagi soddalashtiriladi. Masalan, adabiyot nazariyasiga oid murakkab asarlarning bo'lajak amaliy adabiyotshunos yoki qiziqqan kitobxonlar uchun yengil talqinlari yaratiladi. Ekspert matnning ilmiy aniqligini saqlagan holda jozibadorligini oshiradi. Murakkab nazariya hayotiy misol orqali tushuntiriladi. Bu yondashuv ilmning jamiyatda keng tarqalishiga xizmat qiladi. Matnning foydalilik darajasi soddaligi bilan o'lchanadi.

Adabiy moslashtirish nazariyasi va amaliyoti filolog-ekspert uchun asarning "keyingi hayotini" boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda adabiyot matndangina iborat emas, kino, teatr va raqamli o'yin bilan uzviy bog'liq katta madaniy industriya o'zagi. Bu mavzuni o'rganish bo'lajak amaliy adabiyotshunosga asarning asl mohiyatini saqlab qolgan holda yangi media tiliga qanday o'girish mumkinligini tizimli tushuntirib beradi. Mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, adabiy merosni turli yosh va qiziqishdagi auditoriyaga yetkazish mexanizmini ochadi. Bola uchun soddalashtirilgan nashr yoki mumtoz asarning ekran variantlari kitobxonlikni targ'ib qilishning eng samarali vositalaridir. Shu bilan birga, axloqiy va huquqiy bilimlarni egallash asarlarni asossiz buzilish va huquqiy nizolardan himoya qilish ko'nikmasini beradi. Ekspert bu jarayonda muallif niyati va tomoshabin ehtiyoji orasidagi asosiy muvozanatni ta'minlovchi shaxsga aylanadi. Xullas, adabiy moslashtirishni chuqur egallash adabiyotni vaqt va makon chegaralaridan olib chiqib boqiylikini ta'minlashning eng zamonaviy usuli.

Xurshida HAMROQULOVA,
TAFU professori,
filologiya fanlari doktori



Daxldorlik

Ekologik madaniyatni oiladan boshlash kerak!



Oila – insonning ilk tarbiya maskani. Bola yaxshi-yomon odatlar, tabiatga munosabatni ham avvalo ota-onasidan o‘rganadi. Agar oilada suvni tejash, elektr energiyasidan oqilona foydalanish, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik, daraxt va gullarni parvarish qilish odat tusiga kirgan bo‘lsa, bunday muhitda ulg‘ayayotgan bola ham ekologik mas‘uliyatni tabiiy qadriyat sifatida qabul qiladi.

Afsuski, ayrim hollarda tabiatga befarqlik hali ham uchrab turadi. Ariq va soylarni maishiy chiqindilar bilan ifloslantirish, plastik mahsulotlarni pa-

la-partish tashlash, yashil hududlarga zarar yetkazish kabi holatlar tabiatga emas, aslida kelajak avlodning hayot sifatiga putur yetkazadi. Ha, tabiat unga

Bunday odatlar asta-sekin oilaviy qadriyat, keyinchalik esa jamiyat madaniyatiga aylanadi.

Bugun yurtimizda ekologiyani muhofaza qilish, yashil makonlarni kengaytirish, aholining ekologik bilimini oshirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Biroq bu sa’y-harakatlar har bir oilaning faol ishtiroki bilan yanada samarali bo‘ladi. Chunki ekologik xavfsizlikni ta’minlash har bir fuqaroning burchidir. Zero, tabiat – bizga ota-bobolarimizdan qolgan meros, kelgusi avlodlarimiz omonatidir. Uni asrash, yanada obod va musaffo holda kelajak avlodga topshirish barchamizning muqaddas vazifamizdir.

Inobat QODIROVA,
University of business and science talabasi

Ashurov Qodirjon Komiljonovichning 03.00.09 – Umumiy genetika (biologiya fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “G.hirsutum L. kenja tur va shakllarini madaniy navlar bilan duragaylash asosida yangi genotiplar olish” mavzusidagi(biologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Nogaibayev Iqlas Almagambetovichning 09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo‘yicha “Ekologik borliqning tizimlili” mavzusidagi (falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli imiy kengashning 2026-yil 9-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Muxammadjonov Azizjon Maxmudjon o‘g‘lining 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (filologiya fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Arab tili ‘ism’ so‘z turkumida sinonimiya va semantik differentsiatsiya (Abū Hilāl al-‘Askarīning “al-Furūq al-lughawīyah” asari asosida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 233-34-24;
veb-sayt: www.tsuos.uz; e-mail: info@tsuos.uz; e-xat: Tdshu@exat.uz

Maxmudov Isroiljon Muxitdinovichning 11.00.04 – Meteorologiya. Iqlimshunoslik. Agrometeorologiya ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbekiston janubida qurg‘oqchilikning shakllanish xususiyatlari (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida)” mavzusidagi(geografiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bodomzor yo‘li 1-tor ko‘chasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: info@nigmi.uz

Teshabayev Muxammadkodir Gulamovichning 14.00.38 – Sport tibbiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Suzish bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilar tayyorgarlik davrining turli bosqichlarida yurak-qon tomir tizimidagi funksional o‘zgarishlar” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.35/2025.27.12.Tib.01.01 raqamli ilmiy kengashning 10-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 513-30-87, 501-30-86; e-mail: medsport@gmail.com

Fotiyev Sergey Stepanovichning 03.00.17 – Sport fiziologiyasi, farmakologiyasi va genetikasi (farmatsevtika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Kombinirlangan dori vositasini ishlab chiqish orqali yuqori yutuqli sportning farmakologik ta’minlanishini optimallashtirish(eksperimental tadqiqot)” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.35/2025.27.12.Tib.01.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 13-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 513-30-87, 501-30-86; e-mail: medsport@gmail.com

Mamarizayev Ibrohim Komiljonovichning 14.00.09 – Pediatriya hamda 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Endotoksikozli onalardan tug‘ilgan chaqaloqlar salomatlik holati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66, 233-30-34; e-mail: ilmiyprrektori@sammi.uz

qilingan har bir munosabatni albatta qaytaradi.

O‘ylab ko‘rganmisiz, ekologik madaniyat katta mablag‘ yoki murakab dasturlar talab qilmaydi. Xaridga matodan tikilgan sumka bilan borish, keraksiz chiroqlarni o‘chirib qo‘yish, suvni behuda oqizmaslik, daraxt ekish, hovli va ko‘chalarni ozoda saqlash, farzandlarni hashar va obodonlashtirish ishlariga jalb etishning o‘zi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Usmonov Saidikromxo‘ja Saidaliyevichning 09.00.06 – G‘oyalar tarixi va metodologiyasi (falsafa fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Kiberzo‘ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy ahamiyati” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Mavlanov Zafar Allanazarovichning 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish ixtisosligi bo‘yicha “Tektonik omillarning quduq mahsuldorlik koeffitsiyentiga ta’sirini baholash (Beshkent botiqligidagi Buxoro-Xiva regioni konlari misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O‘ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 280-67-00; e-mail: liting@liting.uz

Bozorova Dilyayra O‘tkirovnaning 06.01.04 – Agrokimyo hamda 02.00.10 – Bioorganik kimyo ixtisosliklari bo‘yicha “Mineral va mahalliy o‘g‘itlar qo‘llashning bamiya (Hibiscus esculentus L.) navlarining o‘sishi-rivojlanishi, hosildorligi va kimyoviy tarkibiga ta’siri (sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Israilov Jaxongirxon Djamshidxonovichning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Tibbiy oliygoh talabalarining chet tilidagi ixtisoslashgan leksikasini kasbiy matnlar asosida rivojlantirish” (Разумие специализированной иноязычной лексики у студентов медицинских вузов на основе профессиональных текстов) mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 205-15-14; e-mail: info@mtm.uz

Abdazov Bobir Bahodirovichning 03.00.17 – Sport fiziologiyasi, farmakologiyasi va genetikasi ixtisosligi bo‘yicha “O‘yin ampluasini tanlashda tabaqalashtirilgan saralashning yangi yondashuvi hamda futbolchilarning sport natijadorligini oshirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.35/2025.27.12.Tib.01.01 raqamli ilmiy kengashning 10-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 513-30-87, 501-30-86; e-mail: medsport@gmail.com

Maxmudova Muazzam Sobir qizining 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha “Porey piyozi(Allium porrum L.)ning qimmatli xo‘jalik belgilariga ega nav namunalarni tanlash va navini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy qilish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz seleksiya yutug‘i (ixtiro patenti) asosidagi taqdimoti) himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Qx.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 288-“a” uy.
Tel/faks: (76) 221-87-20, (71) 260-38-60;
veb-sayt: www.tdmau.uz, e-xat: tmti@exat.uz; e-mail: info@tdmau.uz

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ijtimoiy fanlar fakulteti “Sotsiologiya” kafedrası professori, sotsiologiya fanlari doktori
Raisa UBAYDULLAEVAning vafoti munosabati bilan marhumaning yaqinlariga ta’ziya izhor etadi.

Dolzarb 90 kun

MAKTAB QUCHOG'IDA

TA'TIL ZAVQI O'ZGACHA

Yoz – bolalikning eng zavqli, eng yorqin davri. O'quv yili davomida bilim olgan, izlangan, turli imtihon-u bilim sinovlaridan o'tgan bolalar uchun ta'til, avvalo, hordiq chiqarish, yangi o'quv yili uchun kuch to'plash imkoniyatidir. Bu vaqtda bolani o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi va aynan shu kunlarda uning qiziqishi, iste'dodi, intilishi, qobiliyat va imkoniyatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi yozgi ta'tilni shunchaki dam olish mavsumi sifatida emas, balki bolalarining qobiliyatini rivojlantirish, ularni sog'lom, faol va tashabbuskor etib tarbiyalashning muhim bosqichi sifatida xizmat qilmoqda.

Samarqand shahridagi 10-maktabda ham ushbu loyiha doirasida o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarini mazmunli, qiziqarli va foydali o'tkazish maqsadida qator to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi. To'garaklar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bilan birga, ularning orzu-intilishlari, qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan muhitga aylanmoqda.

Maktab direktori sifatida shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bugun ta'lim muassasalarida kechayotgan o'zgarishlar oddiy tashkiliy jarayon bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Bu jarayonlar o'quvchilar dunyoqarashi-

ni kengaytirish, ularni mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, o'z imkoniyatiga ishonch, tashabbuskorlik va ijodkorlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabimizda faoliyat boshlagan "Yosh ixtirochilar klubi" o'quvchilar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur klub mashg'ulotlarida bolalar zamonaviy texnologiyalar, robototexnika, konstruktorlik, texnik ijodkorlik va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha dastlabki bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lmoqda. O'quvchilar turli modellar yasash, kichik qurilmalar loyihalash, tajribalar o'tkazish orqali texnik tafakkurini boyitmoqda.

Eng muhimi, bu mashg'ulotlar bolalarda izlanish, yangilik yaratishga intilish, muammoga yechim topish malakasini shakllantirmoqda. Bugun oddiy konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanayotgan o'quvchi ertaga muhandis, dasturchi, texnolog yoki innovator bo'lib yetishishi mumkin.



Maktabda sport yo'nalishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 6-sinf o'quvchilaridan iborat futbol jamoasida Maqsud Ulashov va Zafar To'ychimurodov kabi faol o'quvchilar o'z tengdoshlariga namuna bo'lmoqda. Futbol bolalarda chaqqonlik, intizom, jamoaviylik va g'alabaga intilish ruhini tarbiyalaydi. Shu sababli sport to'garaklari ta'til davrining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida davom ettirilmoqda.

San'at va musiqa yo'nalishidagi mashg'ulotlar ham o'quvchilarning qalbida milliy qadriyatlarga mehr uyg'otmoqda. Maktabimizning musiqa fani o'qituvchisi Maftuna Suyunova rahbarligida tashkil etilgan "Dutorchi qizlar" to'garagida o'quvchi qizlar dutor chalish sirlarini o'rganmoqda. 8-sinf o'quvchilari Tanziliya Sobirjonova, Robiya Ilhomova, Osiyo Azimova va Mumtozbeqim Mamatqulova mazkur to'garakning faol ishtirokchilaridan.

Dutor xalqimizning ruhiyati, milliy qadriyatlari va betakror san'at an'alarini o'zida mujassam etgan nafis cholg'udir. Qizlarimizning dutorga mehr qo'yib, unda mumtoz musiqalarni ijro etish sirlarini o'rganishga intilayotgani juda quvonarli.

Shuningdek, maktabimizda shaxmat to'garagi ham muntazam faoliyat olib bormoqda. O'quvchilarimiz Komron Murodqosimov va Damirjon Miralimov shaxmat mashg'ulotlariga katta qiziqish

bilan qatnashmoqda. Shaxmat bolaning mantiqiy fikrlash, oldindan reja tuzish, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

San'atning yana bir jozibali yo'nalishi – raqs mashg'ulotlari ham qizlarimizda katta qiziqish uyg'otmoqda. Raqs o'quvchilarga harakat uyg'unligi, sahna madaniyati, o'zini erkin tutish, jamoa bilan birgalikda ishlash, qolaversa, milliy san'atimizga ehtirom bilan qarashni ham o'rgatadi.

Bu ishlarning samarali yo'lga qo'yilishida tashkiliy masalalar muhim o'rin tutadi. Maktabda to'garaklar jadvali ishlab chiqilib, mas'ul pedagoglar birlashtirildi. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning xavfsizligi, davomati, qiziqishlari va yosh xususiyatlari inobatga olinmoqda. Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning yozgi ta'til davridagi bandligini ta'minlash, ularni nazoratsiz va maqsadsiz vaqt o'tkazishdan asrash bo'yicha ham tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Maqsadimiz bitta: har bir o'quvchining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, sog'lom, bilimli, hunarli, ijodkor va faol avlodni tarbiyalashga hissa qo'shish. Maktab dars o'tish jarayoni bilan chegaralanadigan maskan emas. U bola uchun bilim, tarbiya, do'stlik, iste'dod va orzular mushtarakligidagi ziyo muhitidir.

Gulmira YUNUSOVA,
Samarqand shahridagi
10-maktab direktori



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6137. Tiraji-6250.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

